

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK _____

RAHMONOVA NASIBA

**"QISASI RABG'UZIY" DA KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING
QO'LLANILISHI**

5A120102–Lingvistika (o'zbek tili)

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: **B.M.Bahriiddinova,**
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qarshi – 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I Bob. “Qisasi Rabg‘uziy” asari va uning ilmiy, ma’naviy, ma’rifiy ahamiyati	
1.1“Qisasi Rabg‘uziy” asarining o‘rganilish tarixi.....	9
1.2 “Qisasi Rabg`uziy” asarining ma’naviy, ma’rifiy xususiyatlari.....	17
I bob bo‘yicha xulosa.....	30
II Bob. “Qisasi Rabg`uziy” asarida qo‘llangan ot va fe'l turkumiga mansub so‘zlarning polisemantik tabiatি.	
2.1 Ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarning polisemantik xususiyatlari	31
2.2 Fe'l so‘z turkumiga mansub so‘zlarning polisemantik xususiyatlari.....	44
II bob bo‘yicha xulosa.....	54
III Bob. “Qisasi Rabg‘uziy”da qo‘llangan ko‘p ma’noli so‘zlarning eski turkiy til va bugungi o‘zbek tiliga munosabati	
3.1“Qisasi Rabg‘uziy” da keltirilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning eski turkiy til nuqtai nazaridan tahlili.....	56
3.2 “Qisasi Rabg‘uziy” da berilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning hozir o‘zbek tili nuqtai nazaridan tahlil.....	63
III bob bo‘yicha xulosa.....	76
UMUMIY XULOSA.....	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	83

KIRISH

Mavzuning dolzarblii. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlaboq buyuk ajdodlarimizdan asrlar osha beba ho meros sifatida yetib kelgan nodir asarlar, osori atiqalar bugungi avlodga aslidek yetkazish, ularni ilmiy asosda tadqiq etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir”.¹

Ta’kidlash jaizki, o‘zbek millati qadimdan o‘z yozuviga, adabiy tiliga ega bo‘lgan sanoqli xalqlardan biri hisoblanadi. Ming yillik yozuv tarixiga ega millat vakillari tomonidan bitilgan qo‘lyozmalar nafaqat O‘zbekiston, balki qator horijiy davlatlar kutubxonalarida, xususiy fondlarda saqlanmoqda. Ular ardoqlanib ilmiy muomalaga kiritilmoqda.

IX asrning birinchi yarmi – XIV asr boshida qoraxoniylar sultanatining hukmronlik qilishi oqibatida arablar istilosiga va samoniylar davrida mavqeい susayib ketgan turkiy tilning bukik qaddi qayta rostlandi. Unda badiiy, axloqiy, ilmiy asarlar yaratildi. Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul haqoyiq”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul adab”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” kabi asarlari qatorida Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari ham eski turkiy tilning o‘ziga xos jihatlari, imkoniyatlari, lug‘at boyligini mujassam etgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari asrlar osha bizgacha turli ko‘rinishlarda saqlanib yetib keldi. Ulardagi xalqimizning tarixi, adabiy va falsafiy qarashlari

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. «Маънавият». Т.:2010. Б-31.

saqlanganligi biz uchun muhim hisoblanadi. Shu ma'noda, yurtdoshimiz Nosiriddin Burhonuddin Rabg'uziy va uning “Qisasi Rabg'uziy” asarini o'rganish, asar tarkibi hamda tuzilishiga baho berish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun biz ushbu mavzuni tadqiqot obyekti qilib oldik. Shu paytgacha dunyo turkologiyasi va O'zbek tilshunosligida “Qisasi Rabg'uziy” asari haqida katta tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarda asarning ko‘p qirralari qamrab olingan. Hatto, ayrim qissalar alohida tadqiq qilinib, chop etilgan. Undagi polisemantik so‘zlarni aniqlash va qiyoslash esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nosiriddin Burhonuddin Rabg'uziy va uning “Qisasi Rabg'uziy” asari haqida jahon turkologiyasi, adabiyotshunosligi, tilshunosligida hamda O'zbekistonda ham juda ko‘plab diqqatga sazovor asarlar chop etilgan, ilmiy ishlar, maxsus tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N. Ilminskiy², S. Malov,³ E. Tenishev⁴, K. Grobnek,⁵ H. Karomatov⁶, E. Fozilov⁷, H. Dadaboev⁸, I. Ostanaqulov,⁹ X. Beshoten¹⁰, I. Gemiltsrlu¹¹, A. Yunusov,¹²

²Илминский Н. Кисас-и Рабгузий. – Казан. 1859.

³ Малов С.Е. Мусульманские сказания о пророках по Рабгузи // Записки коллегии востоковедов. – Т. 1. В. – Л.: 1930. С. 521-530 .

⁴ Тенишев Э. Новый список Рабгузи // Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. – Казань. 1983. С. 25-31.

⁵ Grohbech K. Rabguzi. Narrationes de Prophetis. Cod. Mys. Brit. Add. Copenhagen, 1948.

⁶Кароматов Х. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихийтаҳлил). Филол. фан. доктор. дисс. – Т.: 1993.

⁷Фазылов Э. Turkologica. II. Фан. – Т.: 2008.

⁸ДадабоевХ. “ҚисасиРабгузий”нинг лексик хусусиятлари ҳақида // Марказий Осиёолимларининг ўрта аср илмига кўшга ихссаси. – Т.: 1999. 17-23-бетлар.

⁹ Останакулов И. Қисас ар-Рабғузий – адабий асар. Филол. фан. ном. дисс. – Т.: 1993.

¹⁰ Boeshoten H.E. The Leningrad Manuscripts of Rabghuz is Aisas // Тырк Dillarы Агаютәрмалары. Ankara, 1991.

¹¹ Гемилчилу Э. 14 узила ait bir KISAS-I ENBӘYA nushasэъzerinde sentaks incelemesi. – Ankara. 1994.

¹² Юнусов А. Древнейший список «Қысас-и Рабгузий» // Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. Фан. – Т.: 1994.

A. Xaliullina¹³, A.Kraubayeva¹⁴, X.Rasul¹⁵, H.Safarova¹⁶, B.Abdushukurov¹⁷, P. Zohidov¹⁸ kabi olimlar fikr bildirganlar.

Asarning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX boshlarida Qozon va Toshkent shaharlarida litografiya usulida bir necha marta bosilgani ma'lum. Uning nisbatan to'la matni birinchi marta rus turkiyshunos olimi N.I.Ilminskiy tomonidan 1859-yili Qozonda nashr qilingan deb hisoblanadi. Biroq bu nashr asar yozilganidan ancha keyin ko'chirilgan nusxa asosida amalga oshirilgani uchun til jihatidan asl nusxadan keskin farq qiladi. Mazkur davrda "Qisasi Rabg'uziy"dan ayrim parchalar rus tiliga tarjima qilina boshlagan va P.M.Melioranskiy, S.Y.Malov, N.F.Ostromov kabi olimlar tomonidan o'quvchilar hukmiga havola qilingan.

Otaxon adabiyotshunos N.Mallayev o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" nomli darslik-tadqiqotida "Qisasi Rabg'uziy"ni davr nuqtai nazaridan bir muncha siqiq tadqiq qilgan bo'lsa, I.Ostonaqulovning "Qisas ar-Rabg'uziy – adabiy asar" mavzusidagi nomzodlik tadqiqotida uning faqat diniy ruhdagi asargina emas, balki o'nlab adabiy janrlarni o'z ichiga qamrab olgan sinkretik (qorishiq) yirik adabiy manba ekani asoslab berildi.

O'z o'rnida shuni alohida ta'kidlash o'rinligi, asar ustidagi tadqiqotlarning hududiy chegarasi tobora kengayib bormoqda. Xususan, Turkiyadagi G'oziy universitetining Fan va adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti bo'limi tomonidan "Xorazm qipchoq turkchasi dars mashg'ulotlari" seriyasida Xorazmda yaratilgan

¹³ Халиуллина А. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного письменного памятника XIV в. «Кысас ал-анбия» Насреддина Рабгузи. Автореф. дисс. кан. филол. наук. – Казань, 2002

¹⁴ Краубаева К. Идейно-художественные особенности «Кисаси Рабгузи» и «Мухаббатнаме». Автореф. дис. канд. филол. наук. – Алма-Ата. 1974.

¹⁵ Холид Расул. Гўзаллик ва олийжаноблик киссаси // Мангу булоқлар. Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1986. 182-266-бетлар.

¹⁶ Сафарова X. Рабгузийнинг "Кисаси Юсуф Сиддик алайҳис-салом" асари гоявий-бадиий таҳлили. Филол. фан. номз. дис.–Самарқанд. 2001.

¹⁷ Абдушукурев Б. "Қисаси Рабғузий" лексикаси. Академия. – Т.: 2008

¹⁸ Зоҳидов П. Кун туғардин кун ботарга сўзи етган зот // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002 йил 22 февраль; Рабғузий саодати // Тафаккур. 2008 й. №1. 74-81-бетлар.

o‘nlab asarlar qatorida “Qisasi Rabg‘uziy”ning ham e’tirof etilgani diqqatga sazovor¹⁹.

Dissertatsiya mavzusining ilmiy-tadqiqot ishlarining rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining “O‘zbek tilshunoshligi” kafedrasining istiqbolli rejasi tarkibiga kiritilgan.

Dissertatsiyaning maqsadi: Tadqiqotda “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan ot va fe’l turkumiga mansub ko‘p ma’noli so‘zlarni aniqlash hamda ularning eski o‘zbek tilida va hozirgi o‘zbek tilida ishlatalishiga doir umumiyliliklar va farqliklarni yoritish maqsad qilib olingan.

Dissertatsiyaning vazifasi. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar quyildi:

- Nosiriddin Rabg‘uziyning hayot yo‘li va ilmiy faoliyatini, davlat arbobi sifatidagi xizmatlarini yoritish;
- “Qisasi Rabg‘uziy” asarining o‘rganilish tarixini yoritish;
- “Qisasi Rabg‘uziy”dagi qissa va hikoyalarning mavzu doirasini aniqlash;
- “Qisasi Rabg‘uziy” asarining barkamol avlod tarbiyasida tutgan o‘rnini ochib berish;
- Asardagi ot so‘z turkumiga oid polisemantik so‘zlarni aniqlash va ilmiy baho berish;

¹⁹ Ma’lumot uchun qarang: www.isa.sari.com. **Kıssası'l-Enbiya.** “Peygamber kissaları” anlamındadır. Hz. Ademden itibaren tüm peygamberlerin kissalarını ve hayat hikayelerini ihtiva eder. Ayrıca, sahabelerin ve dört halifenin menkıbelerini anlatır. 1310'da Rabguzi tarafından Harezm Türkçesiyle yazılan ve mensur yapıdaki eser, Arapcadan Farscaya yapılmış bir tercumenin Türkçeye uyarlamasıdır. Eserin pek çok nüshası vardır: **Leningrad**, **İsvec**, **Paris**, **Baku** nüshaları bunlardan birkağıdır; ama **Londra** nüshası, en çok işlenen ve tanınan nüsha olması dolayısıyla diğerlerinden daha önemlidir. Danimarkalı Turkolog **Kaare Gronbech** 1948'de Londra nüshasının tipkibasımını nesretmiştir. Tatar asıllı Lehistanlı bir Turkolog ise “Rabguzi”nın Sentaksı” adlı bir doktora tezi hazırlamıştır. Eser hakkında en önemli çalışma ise **Aysu Ata**’ya aittir. İki cilt tutan bu çalışmada metin, tipkibasım ve dizin yer almaktadır.

- Asardagi fe'l so'z turkumiga oid polisemantik so'zlarni aniqlash va ilmiy baho berish;
- “Qisasi Rabg‘uziy” da berilgan polisemantik so'zlarni eski turkiy til nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- “Qisasi Rabg‘uziy” da berilgan polisemantik so'zlarni hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan yoritish;
- Mavzuga oid bajarilgan tadqiqotlarni qiyosiy o‘rganish va tegishli xulosalar chiqarish;

Tadqiqot ishining obyekti. Magistrlik dissertatsiya ishi obyekti 1990-1991 yillarda chop etilgan “Qisasi Rabg‘uziy”²⁰ asari hamda mavzuga oid maqola va asarlardan iborat. Asardagi polisemantik so‘zlar esa uning predmetini tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning predmeti. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining lug‘at tarkibida qo‘llangan polisemantik so'zlarni lingvistik nuqtai nazaridan o‘rganish orqali o‘zbek adabiy tilining XIII asr oxiri va XIV asr boshlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish, yodyorlikning o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida tutgan o‘rnini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, tavsifiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot, asosan, sinxron, zarur o‘rinlarda diaxron aspektida olib borildi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

1. “Qisasi Rabg‘uziy” qadimgi turkiy til va eski o‘zbek tili o‘rtasida o‘ziga xos ko‘p vazifasini o‘tagan nodir manba ekanligi yoritiladi.
2. Asarda qo‘llangan ko‘p ma’noli so‘zlarning hozirgi o‘zbek tilida ishlataladigan variantlari.

²⁰Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990.

3. Ot va fe'l so'z turkumlariga mansub ko'p ma'noli so'zlarning ishlatalishi. Ularning umumiyligi va farqli tomonlari asoslandi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, aynan ushbu mavzuga oid xorijda va o'zimizda bir qator asarlar va maqolalar e'lon qilingan. Ayrim qissalar qiyosan o'rganilgan. Biroq asardagi ot va fe'l so'z turkumiga oid ko'p ma'noli so'zlarning xususiyatlari alohida o'rganilmagan. Bizning ishimiz bu borada yangilik hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot va uning materiallaridan oliy ta'lim muassasalarining filologiya yo'nalishida foydalanish mumkin. “O'zbek tili tarixi”, “O'zbek adabiy tili tarixi”, “Hozirgi o'zbek tili” fanlarini o'qitishda manba vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 13 maydag'i 152-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiyada bayon etilgan ayrim ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar muallif tomonidan 2 ta ilmiy maqolada aks etgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, har biri ikki faslni qamrab olgan uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. “QISASI RABG‘UZIY” ASARINING ILMIY, MA’NAVIY, MA’RIFIY AHAMIYATI.

1.1. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining o‘rganilish tarixi

Mustaqillikdan avval o‘zbek mumtoz adabiyotining bir qator vakillari ijodi, ularning adabiy merosi turli sabablar, to‘sqliar natijasida yetarlicha o‘rganilmadi, targ‘ib etilmadi. Bu jihatlar diniy, islomiy g‘oyalar, mafkuraviy asarlarda, hukmdorlar merosini o‘rganish yoki qator mumtoz shoirlarimizni zamonaviylashtirishga urinish kabilarda ko‘rinadi. O‘tmish merosimizning nodir yodgorligi bo‘lgan “Qisasi Rabg‘uziy” kitobi va uning muallifi Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy merosi ham xalqimiz hayotidan uzib qo‘yildi. Mustaqillik davrigacha nashr etilmadi, ta’lim muassasalarida yetarlicha o‘rganilmadi. Ilmiy ishlar amalga oshirilmadi, chunki asar g‘oyasi, payg‘ambarlar hayoti bilan bog‘liq hikoyatlar o‘sha davr manfaatlariga mos kelmas edi.

XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan nasrning yirik namunalaridan biri “Qisasi Rabg‘uziy” asaridan o‘rin olgan hikoyatlar, rivoyat, naqllarga Qur’on va boshqa diniy kitoblardan, tarixiy asarlar va turli xalqlardan kirib kelgan afsona va rivoyatlar ham zamin bo‘lib, ular turkiy epik an’ana ta’sirida yangi mohiyat va xususiyat kasb etdi.

Darhaqiqat, “Qisasi Rabg‘uziy”dagi hikoyatlarning manbalari yuzasidan olib boriladigan izlanishlar masala tarixini kengroq tasavvur qilishga imkon beradi.

XIII-XIV asr o‘zbek adabiyoti Mo‘g‘ul istilosining, dahshatli hukmronlikning og‘ir natijalari oqibatida yuz bergen ijtimoiy-siyosiy ahvolga qaramasdan, janr rang-barangligi bilan taraqqiy etib borganligi diqqatga sazovordir. Shu jumladan nasr ham adabiy jarayonning boyligiga aylandi. XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan “Qisasi Rabg‘uziy”, “Nahjul farodis” kabi asarlari shu davr mahsullari bo‘lgan nasriy yodgorliklardir.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, u garchi anbiyolar to‘g‘risidagi majmua bo‘lsa-da, sof diniy ruhdagi asarlardan farqli

o‘laroq, o‘zida dunyoviy mayllarning, xalq og‘zaki ijodiga xos badiiy fantaziya tasviri ko‘laming kengligi bilan ajralib turadi.

Manbalarda “Qisasi Rabg‘uziy”ning XIV asrning diqqatga sazovor adabiy yodgorligi sifatida talqin etilishi uning o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda o‘z o‘rnini va ahamiyati borligini ko‘rsatadi. Asar ana’naviy kirish bilan boshlanib, so‘ng kitobning yozilish sababi, muallifning o‘zi haqida xabar beruvchi qisqacha so‘zboshisi keladi.

Asar yetmish ikki qissadan iborat bo‘lib, ularning hajmi, kompozision tuzilishi turlichadir. Qissalarning ba’zilari o‘zaro ichki fasllarga – qismlarga bo‘lingan. Goho shunday o‘rinlar uchraydiki, bir qissa ichida uning mazmunini to‘ldiruvchi tamoman yangi mazmundagi mustaqil rivoyat keltiriladi.

Rabg‘uziyning ushbu asari yer yuzining paydo bo‘lganidan boshlab so‘nggi payg‘ambarimiz – Muhammad (s.a.v.) hayotiga doir bo‘lgan voqealarni tasvirlar ekan, ularda kishilarni to‘g‘rilikka, komilikka, axloqan poklikka chaqirishi bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, taniqli rus olimi A.N. Samoylovich Yassaviy “Hikmat”lari, Rabg‘uziy asarlarini chetlab o‘tib, o‘zbek adabiyotining boshqa asarlarini to‘liq tahlil etish mushkul ish ekanligini ta’kidlab o‘tgan edi.²¹

Nosiriddin Burhonuddin Rabg‘uziy hayoti haqida yetarlicha ma’lumot yetib kelmagan. Shunga qaramay, “... uning zamonasining taniqli tarixchisi, yetuk shoiri va iste’dodli tarjimonni ekanligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Buning dalili sifatida Rabg‘uziy qalamiga mansub qator turkiy she’rlar, arabchadan o‘girilgan she’riy tarjimalarga asarda katta o‘rin berilganligini e’tirof etish mumkin”.²²

Bizgacha yetib kelgan yagona asari “Qisasi Rabg‘uziy”da ba’zi ma’lumotlar mavjud. Undagi ma’lumotlar ham to‘liq emas. Uning asl ismi Nosiruddin bo‘lib (asarda Nosir Rabg‘uziy shakli ham mavjud), Xorazmning Rabotu O‘g‘uz degan joyida tug‘ilgan. Asarining muqaddimasida otasi Burhonuddinning O‘g‘uz Rabotining qozisi bo‘lganligini va asar kimga bag‘ishlanganligi aytib o‘tadi. Asarda bu haqda:

²¹Самайлович А.Н. К Историии литературного среднеазиатского турецкого языка . Сборник «Mir-Ali-Shir». – Л.: 1928.

²² Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. “Қисаси Рабғузий”. Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-7

“Ammo ba’d, bu kitobni tuzgan, to’at yo’linda tizgan, ma’siyat yobonin kezgan, oz ozuqlik, ko’p yozug’luk Rabot O‘g‘uzining qozisi Burhon o‘g‘li Nosiruddin urug‘i, satarallohu alayhi assalomata va raahima shiyabahu (satarallohu – Allohi tolo uni dinislomda muqarrar qilsin va unga salomlar bo‘lsin)” andog‘ aytur... Toj ul-umaro va muhibbul-ulamo beklar urug‘i, yigitlar arig‘i (arig‘ – sof, toza, beg‘ubor), ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu qulqlig‘, islom yoriqlig‘, mo‘g‘ul sanilig‘, musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz (adiz – baland, yuqori, yuksak), aqli tegiz begimiz Nosiruddin To‘qbug‘a sabatallohu alo dinil-islam va salomuhu (Alloh taolo uning kamchiliklarini bekitsin va unga rahm qilsin)”²³, deb qayd etilgan.

Rabg‘uziy so‘zini prof. N.Mallaev “Raboti o‘g‘uz”ning birikuvidan kelib chiqqan deydi. Demak, Rabg‘uziy XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan xorazmlik shoirdir. Rabot o‘g‘uz nomi paydo bo‘lishi islomiyat davri bilan bog‘liq. Dastlabki rabotlar islam yo‘lida kurashchi g‘oziylargaga mudofaa qal’alari vazifasini bajargan. Mazkur manzilda esa asosan o‘g‘uzlar istiqomat qilganiga hech qanday shubha uchun o‘rin qolmaydi. Nihoyat, eng muhim xulosa: Raboti o‘g‘uzda yashab kelgan o‘g‘uzlar eski o‘zbek tilining o‘g‘uz shevasida gaplashgani ma’lum bo‘ladi. Bunday xulosaning isboti uchun “Qisasi Rabg‘uziy” har jihatdan dalolat manbaidir.²⁴

Qadimgi Xorazmning son-sanoqsiz arxeologik yodgorliklari orasida Rabot o‘g‘uz xarobalari topilganiga, mana bir necha yil bo‘ldi. To‘qbug‘a beklik qilgan o‘sha qal’a – rabot tarixiy-arxeologik yodgorliklar qaydnomasida To‘qqal’a nomi bilan zikr qilinadi. Arxeolog olim A Gudakovning “To‘qqal’a” (1964) keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, Nukus shahridan shimoli-g‘arb tomonga qarab 14 kilometr yurilganda, Amudaryo eski o‘zanining (kengligi 200 metrdan ziyod) sharqiy qirg‘og‘idagi tabiiy do‘ngliklar ustida (atorofdag‘i tekis yerlardan 11 metr balandlikda) qadimgi ulkan qal’aband xaroba saqlanib qolgan. Uning umumiyligi sahni 8 gettardan ortiq bo‘lgan maydonidan salkam yigirma besh asrlik tarixga

²³ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. 10-бет.

²⁴ Зохидов П. Кун тугардин кун ботарға сўзи етган зот. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. 2002 йил, 9-сон.

ega ashyoviy dalillar topilgan.²⁵ Asarning yozilishi sababi to‘g‘risida muqaddimada quyidagi qisqacha ma’lumot berilgan:

“Tarix yuz ellining avvalida qosud bitildikim, payg‘ambarlar qissalaring‘a g‘oyat rag‘batim bor. Tekma erda tekma kim ersada bo‘linur ba’zisi mustaqim bor, ba’zisi nomustaqim. Bir onchasi muqarrar va bir onchasi mubattar bor. Bir ozining so‘zлari kesuk bor, bir ozining so‘zлari maqsudlari o‘ksuk. Emdi sanung zimmangdin chiqg‘an , qalamungdin oqg‘an, kitobatma saning, iboratma saning bo‘lub bizga “Qisas ul-anbiyo” bo‘lsa, o‘qumoqg‘a keraklik, o‘granmakga yarog‘liq bo‘lg‘ay erdi, teb iltimos yanglig‘ ishorat bo‘ldi ersa nechama o‘zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin bilmish erkan o‘zumni og‘irlab nafs saqlamish bo‘lub o‘g‘ur bo‘lsun teb bu og‘ir ishga o‘g‘radimiz (kirishdik, qo‘l urdik). Izi azza va jalladan tamom bo‘lg‘ug‘a tavfiq tilab kitob boshladimiz.”²⁶

Nosir Rabg‘uziy asardan ko‘zda tutilgan maqsadni ta’riflab, shunday deydi: “Munda maqsud payg‘ambarlar qissasi erdi. Va lekin Odamdin burunroq yaratilg‘an bor uchun andin boshlasamiz foydasi ortuqroq bo‘lg‘ay deb tartib uza yaratilg‘anlardin og‘oz qildimiz (og‘oz qildimiz – boshladik kirishdik). Ertakliga o‘ng‘ay, istakliga tebray bo‘lsun teb “Qisasi ar-Rabg‘uziy” ot berdimiz”.²⁷

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek nasrining qadimiy namunasi. Bu asar islom dinini qabul qilgan mo‘g‘ul beklaridan biri bo‘lgan Nosiruddin To‘qbug‘aning topshirig‘i va homiyiligida yozilgan. Asarda unga bag‘ishlangan madh ham mavjud:

*Asli mo‘g‘ul erkan ko‘nub
Islom uchun yitti yaqo
Bo‘ldi Rasulning ummati.
Toat qilur tun-kunduzun
Olnur saboq mushafqa baqo
“Qur’on” o‘qimak odati.*

²⁵ Зохидов П. Рабгузий саодати // Тафаккур. 2008 й. №1. 77-бет.

²⁶ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий.. “Қисаси Рабгузий”. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-11

²⁷ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. “Қисаси Рабгузий”. Sharq. – Т.: 2013. Б-5

*Toat qilur kirur suqo
Arslon mengizlik savlati.
Yoshi kichik yo ‘ni ulug‘
Zoti orig ‘bek To ‘qbo ‘g‘a
Ul Nosiruddin kunyati.
El oshlasun, yuz yashasun...²⁸*

Asar hijriy 710 melodiy 1309-10-yil, ba’zi manbalarda 1311-yil yaratilgan deb ko‘rsatiladi. To‘qbug‘a Rabg‘uziyga payg‘ambarlar haqida asar yozishni topshiradi va natijada “Qisasi Rabg‘uziy” yuzaga keladi. Muallif asarni bir yil zahmat chekib tugatganini, asarda qayd etadi:

*Yetti yuz o ‘n erdi yilg‘akim bitildi bu kitob,
Tug‘mish erdi ul o ‘g‘urda Hut-saodat yulduzi.²⁹*

“Qisasi Rabg‘uziy”ning turli davrlarda ko‘chirilgan bir necha qo‘lyozma nusxasi mavjud. Ular dunyoning turli kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi. Asarning eng qadimiy qo‘lyozma nusxasi XV asrda ko‘chirilgan bo‘lib, u Britaniya muzeyida saqlanmoqda. K.Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan³⁰. Manbalarga qaraganda, London nusxasi Rabg‘uziy hayotligi chog‘ida ko‘chirilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida mavjud bo‘lgan qo‘lyozma nusxalarining eng mo‘tabari Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limida S-245 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxasi bo‘lib, u XV yoki XVI asrda ko‘chirilgan deb taxmin qilinadi. Bu nusxaning boshlanishi va oxirgi bir necha sahifasi yo‘qolgan, keyinchalik boshqa nusxalari asosida tiklangan. “Qisasi Rabg‘uziy”ning boshqa nusxalari keyingi davrlarda ko‘chirilgan bo‘lib, bularning leksikasi vaqt taqozosiga ko‘ra o‘zgarib borgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida litografiya asosida bir necha marta nashr etilgan Toshkent, Qozon nusxalari XII-XIII asrlarning til

²⁸Носириддин Бурхонуддин Рабгузий.. “Қисаси Рабгузий”. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-5-11

²⁹Хижрий 710 йилнинг хут ойи. Милодий 1310 йил 21 февраль- 21 март.

³⁰ Grohbech K. Rabguzi Narrationes de Prophetis. Cod. Mys. Brit. Add. Copenhagen, 1948.

xususiyatlarini yaxshi saqlagan. Asarning to‘la matni ilk marta rus turkiyshunos olimi N.I. Ilminskiy tomonidan 1859-yili Qozon shahrida e’lon qilingan.³¹ Bu nashr nisbatan keyinroq ko‘chirilgan nusxaga asoslangan bo‘lib, til jihatdan asl nusxadan ancha farq qilishini olimlar ta’kidlab o’tgan. Keyinchalik asar ayrim parchalarining ruscha tarjimasi, ba’zi lingvistik sharhlar bilan P.M. Melioranskiy, S.E. Malov, N.F. Katanov, N.F. Ostraumov tomonidan o‘quvchilar hukmiga havola qilingan. Bundan tashqari, N. Mallaev asarni maxsus tadqiq qilish o‘zbek adabiyoti tarixi uchun g‘oyat qimmatli natijalar berishini ta’kidlagan.³² Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobidan Yusuf qissasi va Nuh to‘foni bilan bog‘liq parchalar o‘rin olgan.³³

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining boshqa qo‘l yozma nusxalari so‘nggi yuz yillikka aloqador bo‘lib, ular turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan va o‘z davri adabiy tiliga moshlashdirilgan.

Asar qo‘lyozma nusxalarida kitobat qilingan paytdagi tilning ta’siri katta. Buning natijasida esa, asarning matn tili va uslubi o‘zgargan. Bunga misol qilib Shvetsiya, Parij, Boku, Toshkent nusxalarini keltirishimiz mumkin. 1977-yilda nashr etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida T. G‘ofurjonovaning ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti fondida qissaning 7 ta qo‘lyozma va 13 ta toshbosma nusxasi saqlanmoqda. E. Fozilovning ta’kidlashicha, O‘zRFA Abu Rayhon Beriniy nomidagi sharqshunoslik instituti hazinasida obidaning 13 ta, O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi davlat muzeyi fondida esa 2 ta qo‘lyozma nusxasi bor. Rossiyalik tilshunos A. Xaliullina esa ilm olamida asarning 35 ta qo‘lyozmasi mavjudligi shundan 19 tasi Qozon kitob fondida saqlanishini qayd etadi.

Asarni o‘rganish dastlab turkologiyada boshlangan, sababi XIII-XIV asr turkiy obidalar til xususiyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish bilan bog‘liq. Til tarixidan bizga ma’lumki, eski turkiy tilning so‘z boyligini tahlil qilishda

³¹Илминский Н. Кисас-и Рабгузий. – Казан. 1859.

³²Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқитувчи. – Т.: 1976. Б-206

³³Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. – Самарқанд, 1928. 104-112-бетлар.

A. Borovkov, S. Mutalibov, G' Abdurahmonov, A. Nasib, E. Fozilov, Q. Mahmudov, Q. Karimov, N. Ne'matov, H. Dadaboyev, Q. Sodiqov kabi turkolog olimlarning hissasi juda katta. Jahon tilshunosligida “Qisasi Rabg‘uziy” asarini Y. Shenkivich sintaksisi bo‘yicha, A. Abrajev yodgorlikdagi qo‘shma so‘zlar bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borishgan. 1969-yilda O‘ Mirzakarimova Sankt-Peterburg nusxasi asosida asarning morfologik xususiyatlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. A. Xaliullina tomonidan asrning Ilminskiy nashri London va ikkita Qozon nusxalarini qiyoslagan holda uning fonetik hamda morfologik xususiyatlarini tadqiq etgan. Bundan tashqari germaniyalik X. Boeshoton va belgiyalik M. Vandammelarning “Qissasi Rabg‘uziy” bo‘yicha bir nechta maqolalari e’lon qilingan.

Mustaqilligimiz sharofati bilan o‘zbek tilshunosligida ham “Qisasi Rabg‘uziy” asarni chop etish va uni o‘rganish yuzasidan tadqiqotlar bir muncha jonlandi. Xusan, H. Dadaboyev tomonidan qissadagi ijtimoiy-siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy terminlar, astroponimlar tadqiq etildi, “Qisasi Rabg‘uziy” lekseksi bo‘yicha bir qator maqolalar e’lon qilindi. Bularga quyidagilarni keltirish mumkin “O‘zbek adabiy tili leksik tarkibining o‘zlashmalar hisobiga boyishi”³⁴, “Qisasi Rabg‘uziy”dagi ayol semali leksemalar xususida”³⁵, “Qisasi Rabg‘uziy”ning leksik xususiyatlari”³⁶, “Qisasi Rabg‘uziy” tilidagi turkiy leksemalar³⁷, “Qisasi Rabg‘uziy” da qo‘llangan sal- fe’lining semalari xususida”³⁸.

N.Xusanov qissa tilida istifoda etilgan farishtalar, payg‘mbarlar va ularning qarindoshlari, oila a’zolari, xalifalar, avliyolar nomimni anglatuvchi antroponimlar xususida ilmiy izlanish olib bordi. R. Zohidov “Qisasi Rabg‘uziy” asari yozilish tarixi, tili va uning muallifi, nasl nasabi, tug‘ilib o‘sgan joyi bilan bog‘liq

³⁴ X.Дадабоев. Ўзбек адабий тили лексик таркибининг ўзлашмалар хисобига бойиши// Тошкент вилояти давлат педагогика институти педагог-ходимларнинг анъанавий илмий-назарий амалий-услубий анжумани маърузалари. – Ангерин,2007. -Б. 337-342.

³⁵ X.Дадабоев “Киссаси Рабгузий”даги аёл семали лекмалар хусустда // Филология фани:янги аср муаммолари. –Т.,2003. –Б. 124-128.

³⁶ X.Дадабоев. “Киссаси Рабгузий”нинг лексик хусусияти ҳакида// Марказий Осиё олимларининг ўрта аср илмларига кўшган хиссас. –Т., 1999. –В.17-23

³⁷ X.Дадабоев. “Киссаси Рабгузий” тилидаги туркий лексемалар//Второй международный тюркологический конгресс. Современная тюркология:теорияб, практика и перспективыю I бўлим. – Туркестан, 2006. –Б 90-93.

³⁸ X.Дадабоев. “Киссаси Рабгузий”да кўлланган сал- феълининг семалари хусусида// Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Т.:2006. –Б. 22-24.

ma'lumotlar aks etgan maqolalarini kitobxonlar e'tiboriga taqdim etdi. B. Abdushukurov ham asar haqida 40 ga yaqin ilmiy maqolalar e'lon qilib, 2009 yilda "Qisasi Rabg'uziy" asarini hozirgi tilimizga yaqinlashtirgan holda nashr qildirdi. Buning sababini asarga yozilgan "Muhim yozma yodgolik" so'ng so'zida quyidagicha izohlaydi "...asarning ilk nashri bilan solishtirish va undagi o'zgarishlarni aniqlash imkoniyatini bersa, ikkinchi jihatdan, xalqimiz orasida eng ko'p tarqalgan nasriy asarning mazmuni bilan kitobxonlarni yanada tanishish uchun sharoit hozirlaydi ".³⁹ 2015-yil "Qisasi Rabg'uziy" asari asosida "Eski turkiy adabiy til leksikasi" o'quv qo'llanmasini nashr ettirdi.

Adabiyotshunoslik sohasida ham "Qisasi Rabg'uziy" asari bo'yicha bir qator tadqiqotlar qilindi. Xususan, H. Karomatov 1993-yilda "O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi⁴⁰, I.Ostanaqulov 1993-yilda "Qisas-ar-Rabg'uziy – adabiy asar" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi⁴¹, H. Safarov tomonidan 2001-yilda "Rabg'uziyning "Qissasi Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari g'oyaviy-badiiy tahlili" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi⁴². Z. Shukurovaning "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida bir necha maqolalari e'lon qilindi. Z. Shukurova asosan, "Qisasi Rabg'uziy"da ertak motivlari, tush talqinlari, "Qisasul anbiyo" asari nusxalari haqida tadqiqot olib borganlar⁴³. R. Zaripova, N. Sa'dullayevalar ham 2013-yilda "Qisasi Rabg'uziy" asarini hozirga tilimizga yaqinlashtirgan holda chop ettirdilar. Demak, "Qisasi Rabg'uziy" asari bizgacha juda kam nusxada yetib kelgan bo'lishiga qaramay, bugungi kunda juda mashhur yodgorlik hisoblanadi. Mumtoz adabiy manbalarni o'rghanish yoshlar dunyo qarashini ma'rifiy, ma'naviy jihatdan takomillashtirishda ahamiyatlidir.

³⁹ Nosiriddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. Toshkent: Mumtoz so'z. 2009. B.205.

⁴⁰ "H.Karamatov. "O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari".

⁴¹ Ostanaqulov I. Qisas ar-Rabg'uziy – adabiy asar. Filol. fan. nom. diss. – T.: 1993. 3-bet.

⁴² Safarov H. Rabg'uziyning "Qissasi Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari g'oyaviy-badiiy tahlili. Filol. fan. nomz. dis. – Samarqand. 2001. 127-128-betlar.

⁴³ Shukurova Z. Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy"da ertak motivlari G'G' Til va adabiyot ta'limi. 2010 y. №3. 36-40-betlar. Shukurova Z. Rabg'uziyning "Qisasul anbiyo" asari nusxalari haqida G'G' Til va adabiyot ta'limi. 2010 y. №9. 76-80-betlar. Shukurova Z. "Qisasi Rabg'uziy"da tush talqini G'G' Til va adabiyot ta'limi. 2011 y. №7. 80-85-betlar.

1.2. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining ma’naviy, ma’rifiy xususiyatlari

Inson fikrlash, so‘zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan va shular tufayli boshqa barcha mavjudotu mahluqotlardan ustun turuvchi oliv zotdir. Insonda xotira, farosat, tasavvur, mantiq qudrati, iffat, sevgi bor. Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o‘z maqsad-muddaolari, shu bilan birga umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib ma’naviy dunyosini yuksaltirib borar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Inson bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib azaliy tariximizni o‘rganish va baho berishda uning biror-bir davrini qamrab olishga harakat qiladi. Barkamol avlod ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr oqibat, insonni ulug‘lash, osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘nib-o‘sib kelayotga yoshlarimizning ongi-shuurida tarixiy adolatga ishonch va insoniylik fazilatlarini qaror toptirish, ularning ma’naviy olamini kengaytirish, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekani bilan e’tiborliroqdir. Darhaqiqat, odamda farosat bor, tez va to‘g‘ri fahmlab oladi. Oldiga o‘yganni yemoq hayvonning ishi og‘ziga kelganni demoq tentakning ish deydilar A.Navoiy bobomiz.

Ma’lumki, sharq adabiyotida butun diqqat-e’tibor komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish hamda uning jismoniy va aqliy kuchidan jamiyatning ezgu maqsadlari yo‘lida foydalanishdan iborat. Inson dunyoga kelar ekan, tashqi olamdan holi yashay olmaydi. Tevarak-atrofdagi har bir voqeа-hodisa uning aqliy, hissiy, ruhiy va jismoniy holati bilan birgalikda uning ma’naviy dunyoqarashiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina tabiiy va notabiyy narsalar uning hayot kechirishi, ma’lum kasb-hunar egallab, rizq-ro‘z topish uchun ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina narsalar esa salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotning vazifasi mana shu ikki omil o‘rtasida o‘zini qanday tutishi kerakligi va nimalardan ibrat olib, nimalardan xushyor bo‘lishi kerakligini xolis ko‘rsatib berishdir.

Ammo hayotdagи mavjud qoidalar, turmush tarzi juda ham murakkab bo‘lib, ularni alohida-alohida o‘rganib, tahlil qilib tushuntirilmasa ma’lum maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Shu sababli ham hayot haqiqatining bir jihatini badiiy tahlil etishda ma’lum bir mavzu chegaralab olinadi. Adib badiiy asar yaratar ekan, o‘zi tanlagan mavzu to‘g‘risida oldindan aytib qo‘ymaydi. Kitobxon voqeа bilan tanishib, qanday mavzuda yozilgani va bu ishni qanchalik mahorat bilan yoritganini anglaydi. Ko‘p yillik adabiyot tarixi shundan dalolat beradiki, xoh epik, xoh lirik asarlar bo‘lsin, ularda yangi-yangi mavzulardan tashqari, barcha davrlar uchun hamisha zarur bo‘lgan eskirmas mavzular qalamga olinadi. Lekin bu mavzularni yoritib berishda har bir asarning o‘ziga xos hayotiy manbasi, maqsad va g‘oyasi bo‘ladi. Biz barhayot, ya’ni eskirmas mavzular deganda, insonparvarlik, tinch-totuvlik, mehr-muhabbat, jabr-zulmni qoralab, jinoyat va gunohdan tiyilish, tabiatni avaylab-asrash, ota-onा va farzand munosabatlari, yomonlik ustidan yaxshilikning g‘alaba qilishi, do‘slikka sadoqat, va’daga vafo qilish kabi ko‘plab mavzularni ko‘zda tutmoqdamiz. Rabg‘uziy payg‘ambarlar haqidagi qissalarda olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy ifodalashga harakat qilgan. Qissalar asosini tarixiy voqealar tashkil etadi. Nosiriddin Rabg‘uziy qissa va hikoyalaring mavzu ko‘لامи g‘oyat ko‘p qirralidir. Asarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda ijtimoiy hayotning turli-tuman masalalari qamrab olingenligini ko‘ramiz. “Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek adabiyotining mumtoz namunasidir. Rabg‘uziy asari mavzu jihatdan serqirra asar hisoblanadi. Asarda bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan ruhan, jismonan sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularning muayyan kasb-hunarini egallab, farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratish, insonparvarlik, vatanparvarlik, to‘g‘rilik,adolat, shaxs va jamiyat munosabatlari, g‘ayriinsoniy va g‘ayriaxloqiy fe’l-atvorlarga qarshi kurash kabi mavzular mustahkam joy olgan.

Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari dunyo va insonning yaratilishi mavzularidan keyin hozirgi kunda ham muhim bo‘lgan muammolarni o‘z ichiga olgan quyidagi mavzularni bayon qiladi.

Dunyoning avvalidan insoniyat oldida nohaq qon to‘kilishini oldini olish mavzusi hamisha dolzarb masalalardan bo‘lib keladi. Qирғин-барот урушларда, insonlarning o‘заро janjallarida insonning qoni to‘kilishi kechirib bo‘lmaydigan ishlardandir. Shu jihatdan dunyoviy qonunlarda ham, barcha dinlarda ham nohaq qon to‘kish qoralanadi. Ayniqsa, hozirgi kundagi terrorizm va ekstremizm kabi illatlar nohaq qon to‘kish, alohida siyosiy arboblarni o‘ldirish yoki ularga qasd qilish, jamiyatda notinchlik yuzaga keltirish uchun qilinadi. Mazkur asardagi Qobil va Hobil qissasida nohaq qon to‘kish og‘ir jinoyat ekanligi mavzusi yoritiladi.

Nosiriddin Rabg‘uziy asarlarida ham yuqoridagi mavzular yetakchi hisoblanadi.⁴⁴ Asarda bizga juda muhim bir dalil bor. Bu dalil Rabg‘uziy asarlarining mavzusini aniqlab olishda kalit vazifasini o‘tashi mumkin. Ma’lumki, “Qisasi Rabug‘uziy” asarida “Qobil va Hobil” qissasi o‘rin olgan.⁴⁵ Mavzuni ochish uchun qissa syujetiga qisqacha murojaat qilsak. Odam Atoning o‘g‘illari Qobil va Hobil xotin talashib, arazlashib qoladi. Qobil Hobilni tosh bilan urib o‘ldiradi va ko‘mib tashlaydi. Oradan bir necha yil o‘tib Qobil o‘z xotini Iqlimoni qo‘lidan tutib Yaman viloyatiga keladi. Bu yerda u bir ko‘zsiz bola ko‘radi. Ko‘zsiz bola ham ko‘zsiz bola ko‘radi. Ular ulg‘ayganda ko‘zsiz o‘g‘il “Amaking Hobilni o‘ldirgan Qobil bo‘ladi” deydi. Ko‘zsiz ota Qobilni tosh bilan urib o‘ldiradi. Haligi o‘g‘lon “O‘z otangni o‘ldirding-a” desa uni ham o‘ldirib qo‘ya qoladi. Bu voqeani tepadan tomosha qilib turgan farishtalar. Allohga shunday deydilar:

“Odamni yaratmang degandik, yaratdingiz, mana u bir-birini o‘ldiruvchi bo‘ldi”. Alloh Taolo ularga aytadi:

“Agar sizlar ham yer yuzida yashasangizlar, odamlar qilgan gunoh ishlarni qilgan bo‘lardingiz”. Shundan so‘ng Alloh farishtalar ichidan eng oqil va zohid uch nafarini yerga yuboradi. Ulardan ikki nafari yerda qoladi. Ular odam suratida bo‘lib, qozilik bilan shug‘ullanadi. Alloh Taolo ularni yerga yuborar ekan shunday deydi:

⁴⁴ Останақулов И. Қисасар-Рабғузий – адабийасар. Фило. фан. ном. дисс. – Т.: 1993. Б-42

⁴⁵ Носиридин Бурхонуддин Рабгузий. “Қисаси Рабғузий”. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-29-32

“Dunyoga boring, menga toat qiling, ma’siyatdan yig‘iling, qon to‘kmang, hamr ichmang, xalq orasida ko‘ni hukm qiling, zino qilmang, xiyonat qilmang”.⁴⁶

Ya’ni inson Allohga toat qilsa, hamisha uning yodi bilan yashasa, oxiratini o‘ylasa, yomon ishlardan saqlanadi, o‘zidagi yomon unsur va illatlardan qutilishga harakat qiladi. Yuqorida biz aytib o‘tgan mavzular kaliti mana shu fikrlar asosida yotadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu yerdagi har bir nasihat bir necha mavzularda fikr yuritish imkonini beradi. Har bir nasihat asnosida qissalar va hikoyalar mavzusi haqida fikr yuritsak.

1. “Menga toat qiling” – Inson Allohga toat qilsa, u hamisha qilgan ishining oxirini o‘ylab ish yuritadi. U o‘z-o‘zini nazorat qilib, zararli va halokatga yetaklovchi xatti-harakatlardan o‘zini tiyadi.

Nuh, Solih, Ibrohim, Lut, Muso, Dovud, Sulaymon, Yunus, Iso qissalari kishilarni yagona Allohga toat ibodat qilishga da’vat etadi. Chunki mazkur payg‘ambarlar dunyoga kelganda jamiyat ma’naviy, axloqiy jihatdan tubanlashib, yer yuzida hayot halokat jari yoqasiga kelib qolgan bo‘ladi. Ular bu falokatlarda o‘z qavmlarini ogoh etadilar va ularga qarshi kurash olib boradilar. Bundan quyidagi mavzular kelib chiqadi:

1. Yer yuzida ijtimoiyadolat o‘rnatish;
 2. Insonlarcha tenglikka asoslangan jamiyat barpo etish uchun intilish;
 3. Hukmdorlarniadolat bilan ish yuritishga da’vat etish.⁴⁷
-
2. “Ma’siyatdan yig‘iling” – gunohdan saqlaning degani. Inson jamiyat a’zolari tomonidan tan olingan odob-axloq normalari buzilsa, o‘ziga va boshqalarga moddiy va ma’naviy zarar yetkazsa, yetkazishni o‘ylasa gunoh deyiladi. Kishi boshqalarga o‘z ixtiyori bilan moddiy va ruhiy naf yetkazsa, yaxshilik qilsa savob deyiladi. Gunoh va savob tushunchalari “Qisasi Rabg‘uziy”da juda ko‘p mavzularda yoritib berilgan. Masalan:

⁴⁶ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-12.

⁴⁷ Останакулов И. Қисас ар-Рабгузий – адабий асар. Филол. фан. ном. дисс. – Т.: 1993. Б-43-44

1. Gunoh ish qiluvchiga ham, jabrlanganga ham ziyon yetkazadi. (Xorut va Morut degan farishtalar bayonida). ⁴⁸

2. Axloqsizlikning jamiyatga salbiy ta’siri. (Lut alayhissalom qissasi). ⁴⁹

3. Gunohga tavba qilish – yaxshi fazilat. (Hazrat Dovud alayhissalom qissasi). ⁵⁰

Bunday mavzularni uzoq davom ettirish mumkin. Dissertatsiyamizning ish hajmidan kelib chiqib shular bilan cheklanamiz.

3. “Qon to‘kmang” – qon to‘kish, besabab birovni o‘ldirish ham islomda qoralanadi. Asarda bu haqida bir necha o‘rinlarda aytib o‘tiladi.

4. “XAMR ICHMANG” – islomda xamr (aroq) ichish man qilinadi. Chunki u ko‘p yomon ishlarga sabab bo‘ladi. Bu mavzuda “Qisasi Rabg‘uziy”da ko‘pginao‘rinlarda eslatilib o‘tiladi.

5. “Xalq orasida ko‘ni hukm qiling” – bu nasihat asosan yuqori mansab egalari, qozilar, amaldorlarga taalluqli bo‘lib, har ishda adolatli, to‘g‘ri hukm qilish zarurligi ta’kidlangan. Kuchsizlarga ozor yetkazmaslik va inson shaxvoniy hislarga berilmasligi, bu yo‘lda yurganlarga sharmandalik, yuzi qarolik, azob-uqubat yetishi aytildi.

Bundan tashqari quyidagi mavzularni ham aytib o‘tish mumkin:

a) ota-onani hurmat qilish va ularga xizmat qilish;

b) farzand tarbiyasida ota-onaning o‘rnini;

v) do ‘st va birodarlik;

g) yomonlikdan hazar qilish;

d) yaxshilik qilishga intilish kabilar.

⁴⁸ Nosiriddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. – T.: Mumtoz so`z, 2009. B-33-34

⁴⁹ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990.Б-76-77

⁵⁰ Nosiriddin Burhonuddin Rabg‘uziy.Qisasi Rabg‘uziy. – T.: Mumtoz so`z ,2009. B-45-49

Asarda Nuh, Dovud, Sulaymon, Iso, Muso, Yusuf, Ya'qub, Ismoil, Ibrohim payg‘ambarlar, Luqmoni hakim haqidagi hikoyatlar keltirilgan va bu hikoyatlarning har biriga ma'lum bir mazmun yuklatilgan. Quyida ularning ba'zilari bilan tanishamiz.

Rabg‘uziy Yunus payg‘ambar qissasini bayon qilish bilan asarni o‘quvchida inson o‘zini qutqarib, insonlarni kulfatda qoldirib boshqa joylarga ketish halokat ekanligi uqtiradi. Aslida, inson faqat o‘zi uchun emas, balki boshqa atrofidagi kishilar bilan birga yashashi lozim.

“Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi Dovud payg‘ambar qissasida har bir kishi kasb-hunar bilan tirikchilik qilishi lozimligi mavzusi bayon qilinadi.

Har bir inson kasb o‘rganib, shu kasbi bilan o‘z tirikchiligini o‘tkazishi lozimligi uqtiriladi. Inson o‘z qo‘li kuchi, kasbi, mehnati bilan ajoyib narsalarni yaratadi. U inson kasbi bilan xalqning hojatini chiqaradi va uning olqishiga sazavor bo‘ladi. Kasb-hunarli kishi har doim xalq uchun kerakli insondir.

Qadimdan insonlar doimo poklikda yashashga harakat qilib kelishadi. Shu sababli insonlar o‘zi yashagan joylarni toza, saranjom sarishta, liboslari ozoda, luqmalarini ham pok bo‘lishiga ahamiyat berib kelishgan. “Qisasi Rabg‘uziy”da ham poklik mavzusi asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Asar boshidagi “Horut va Morut” qissasida noplak jinoyat ekanligi, poklik esa fazilat ekanligi mavzusi bayon qilinadi. Bu qissada Qobul va uning o‘g‘illari bir-birlarini o‘ldirganliklari, shu tufayli farishta odamni yaratish qon to‘kilishiga sababchi bo‘lishini aytadilar.

Xaqimizda qadimda zino buzuqlilik sifatida qoralanmanganda edi, sevgi va do‘stlik, mehr va shafqat kabi ijtimoiy va insoniy tuyg‘ular asosiga qurilgan oila hayoti barham topgan bo‘lar edi. Zino oilalarning buzilishi jamiyatning yemirilishidir. Jamiyatning yemirilishi esa insoniyatning halokat tomon yuz tutishidir. Zino inson iffat-nafsini poymol qiladi. Shaxs, oila, jamiyat buziladi. Insoniyat tarixiga nazar solinsa, bu noplaklik insoniyatga va u yashayotgan jamiyatga yaxshiliklar olib kelmagani ma'lum bo‘ladi. Horut va Morut ham o‘z

nafslari yo‘lida iffatli ayollarni yo‘ldan urishgacha boradilar. Lekin oqila, o‘z e’tiqodiga mustahkam, eriga sadoqati zo‘r bo‘lgan ayol ularni dog‘da qoldirib, Xudoning olqishiga sazovor bo‘lib, tong yulduziga aylanadi. Nopok ish bilan shug‘ulangan Horut va Morut jazolanadilar. Ular Bobilda oyoqlaridan osib qo‘yildilar. Bu haqda asarda shunday deyiladi: “*Jabroil ularni Bobil quzug‘inga eltdi. Qil birla tabondan osdi*”⁵¹.

“Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi Sulaymon payg‘ambar qissasida inson dunyoni boshqarishga qodirligi masalasi bayon qilinadi. Asardagi qissada Sulaymon payg‘ambar Dovud payg‘ambarning farzandlari ekanligi va u kishiga podshohlik meros qolganligi aytildi.

“Dovud alayhis-salom qissasi”da inson yer yuzining egasi qilib yaratilganliklari, u butun dunyoni boshqarishga qodir ekanligi va yer yuzidagi barcha mavjudotlar, maxluqotlar odamzodning tasarrufida bo‘lib, uning uchun xizmat qilishi uqtiriladi. Asarda inson yer yuzining qayerida bo‘lmasin millati, jinsi, rangi, tili, dinidan qat“iy nazar teng va har bir ishga qodirligi bayon qilinadi.

Qorun qissasida ochko‘zlik insoning tuban axloqiy ko‘rinishi ekanligi va oxir oqibat halokatga borishi bayon qilinadi. Qorun boyligi haqida qissada: “Mavlo qudrati birla Qorun yetti tun-kun oltunchiliq qildi. Ganjlardan xazinalar o‘rnatti. Tekma bir ganjga bir oltun kalid qildurdi. Kalidlar ko‘p bo‘ldi. Ko‘tarmoq og‘ir bo‘ldi. Qachirg‘a yukladilar, qachir ko‘tarmadi”, deyiladi. Shuncha boyligi bo‘lsa ham Qorunning ko‘zi och edi. U boyligidan faqir kishilarga nafaqa berishga baxil qilar edi. Muso payg‘ambar Qorunga molidan muhtoj kishilarga nafaqa beirishni aytganda, u ko‘nmadi. Qorun Muso payg‘ambarga tuhmat uyushtirdi. Ochko‘z odam o‘z nafsi foydasi yo‘lida birov larga tuhmat qilishdan ham qaytmaydi. Bu haqda qissada: “Bir kun Qorun bir Shamit otlig‘ arig‘siz urag‘utga ming oltun berdi. Taqi aydi: “Borg‘il, Muso majlis tutar yerda xalq qoshida ayg‘il: “Ey Muso, sen o‘zgalarga o‘gut berursan. O‘zing maning birla tong otquncha nelar qilding,

⁵¹ Рабгузий, Носируддин Бурхониддин. Қисаси Рабгузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990.Б-38.

xamir ichting. Emdi kelib xalqg‘a ne o‘gutlar berursen”. “Shamit ming oltunni oldi, Musog‘a keldi. Ul ming oltunnni kelturub Muso o‘nginda qo‘ydi.. taqi aydi.” Muni manga Qorun berdi. Borg‘il, Musog‘a bani Isroil qatinda mundog‘ tegil teb. Emdi keldim, tavba qildim”⁵².

Ochko‘zlikning oxiri halokat bilan tugadi. Muso payg‘ambar duo qildilar. Qorunni butun boyligi va saroyi bilan yer yutdi. Bu haqda asarda: “mavlo taolo Muso duosinin ijobat qildi. Qorunning qamug‘ moli tovari birla, saroyi birla quyi izdi”, deyiladi.

Ochko‘zlik eng yomon odatdir. Inson ochko‘z bo‘lsa, u och bo‘ridek narsaga tashlanadi. Boy deb ko‘zi to‘q, ko‘ngli to‘q odamni aytildi. Ochko‘z odam hech vaqt boy bo‘laolmaydi. Ochko‘z nafs insonni razil ishlarga undaydi. Inson baxil, himmatsiz kishi bo‘lib qoladi.

Inson uchun eng xavfli odat bu ochko‘zlikdir. Ochko‘zlik insonni halokatga yetaklaydi. Shu sababli “Qisasi Rabg‘uziy”ning “Qorun qissasi”da ochko‘zlikning halokatli oqibati bayon qilinadi.

“Yusuf payg‘ambar qissasi”da “Sog‘lom bola-sog‘lom tarbiya mevasi” ekanligi bayon qilinadi. Bu mavzu hamma zamonlar muhim ishlardan bo‘lib kelgan. Ayniqsa, bu yilgi 2014-yilimizga “Sog‘lom ona va bola yili” degan nom berilishi bu mavzuni yana muhimligini ko‘rsatdi. Chunki oilada barkamol farzandlarni tarbiyalash har bir oiladagi tarbiyaning sog‘lomligiga bog‘liq. “Sog‘lom ona va bola” yili munosabati bilan bu yilda davlatimiz tomonidan turli dasturlar qabul qilinadi. Ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi xodimlar tomonidan sog‘lom bola tarbiyasi yo‘lida xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shu jihatdan Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi “Yusuf payg‘ambar qissasi” muhim mavzu ko‘tarilgan asar hisoblanadi. Yoshligidan har tomonlama sog‘lom bo‘lib tarbiyalangan bola ota-onaga mehribon, Vatan va xalqiga sodiq inson bo‘lib yetishadi. Ana shunday har tomonlama sog‘lom bo‘lib yetishgan inson o‘zining kimligini, qanday buyuk

⁵² Рабгузий, Носируддин Бурхониддин. Қисаси Рабгузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. Б–13 .

zotlarning avlodи, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab yetadi va u ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, ona yurtimizni yot va begona ta"sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq topishida o'zining munosib hissasini qo'shadigan bo'lib voyaga yetadi.

Shuningdek, asarda odamning, yer yuzi, ko'k, jin, farishtalarning yaratilishidan boshlab ma'lumotlar keltiriladi. Mana olamning yaratilishi haqidagi xabar:

"Xabarda andog' kelur: Yakshanba kun ko'klarni yaratti, dushanba kun oyni, kunni, yulduzlarni yaratti, falak ichinda turitti, seshanba kun olam xalqinda qush-qurtlarni, farishtalarni yaratti, chahorshanba kun suvlarni yaratti, ellarni, bulutlarni chiqardi, yig'ochlarni, o't-emlarni yaratti, undurdi. Ro'zilarni ulashturdi. Payshanba kun ujmoh, tamug'ni, rahmat va azob farishtalarni yaratti, hurlarni yaratti. Azina kun odamni yaratti. Shanba kun narsa yaratmadi".⁵³

Odamning yaratilishi haqida ham gap boradi. Jabroil, Isrofil, Mekoil tuproq olib kelishga buyuriladi. Ular qilmagan ishni Azroil bajaradi. Shu uchun ham jonzotlar jonini olish unga topshiriladi. Odamni tuproqdan yaratadi. Tog', Tengiz, Ko'k ulardan yaratishni talab qilishadi. Tuproq jitmurgani bois undan yaratiladi.⁵⁴

Asarda Muso payg'ambar, Sulaymon va qarincha, Sulaymon va kursisi, Sulaymon va Bilqis haqidagi, Yunus, Ilyos, Xizr, Luqmoni hakim, Iso, Iskandar haqidagi qissalar ham e'tiborlidir.

Asarning katta qismi payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hayotlariga bag'ishlangan.

Rabg'uziy haqida gap ketganda uning she'riyati haqida ham so'zlash joiz. Chunki har bir qissa boshida yoki oxirida keltirilgan she'rлar bundan dalolat beradi. Ayrim g'azallar voqealar ichida ham beriladi. Bular Rabg'uziyning turkiy aruz va barmoq vaznini yaxshi egallaganidan guvohlik beradi. Ushbu asarda 600 misra she'r o'rin olgan bo'lib, bular g'azal, ruboiy, qit'a, to'rtlik, qasida janrlarida

⁵³ Рабгузий, Носируддин Бурхониддин. Қисаси Рабгузий. Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-12

⁵⁴ Рабгузий, Носируддин Бурхониддин. Қисаси Рабгузий. Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-17

bitilgan. Bahorni, Navro‘zni madh etuvchi she’r bor. Rabg‘uziy asarida xalq og‘zaki ijodining ham chuqur ta’siri seziladi. Masalan: Bani Isroiil ularga 12 baquvvat, baland bo‘yli kishilarni yuborishadi, bog‘bon kelib ularning oltitasini bir engiga, yana oltitasini ikkinchi engiga solib oladi. Ularni qo‘l- oyoqli qurtlar deb ataydilar. Yoki Muso payg‘ambar hassasini yerga sanchsa mevali daraxt, dushmanga qarshi ilon, daryodan o‘tishda ko‘prik vazifasini bajaradi. Yoki Yusufning akasi Yaxudo na’ra tortsa, Misr eli hushsiz yiqladi va hokazo.

Rabg‘uziy ushbu asarni yozishda Qur’oni karim, hadislar, Abu Is’hoq Nishopuriy asari, islomga oid turli kitoblar, shuningdek, Hasan Basra, Jobir ibn Ansoriy kabi qissago‘ylar ijodidan foydalangan degan fikrlar olimlar tomonidan ilgari suriladi. Asarni o‘qir ekanmiz, Rabg‘uziyning o‘nlab bunday asarlardan ijodiy foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Bu manbalar ikkita adabiy va tarixiy manbalar manbalardir.

Adabiy manbalarga, avvalo, Qur’onga yozilgan tafsirlarni, so‘ng Is’hoq Nishopuriy, Abul Hasan Kisoiy qissalarini kiritish mumkin. “Qisasi Rabg‘uziy”da payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayotigacha bo‘lgan qissalar bevosita Qur’on sharhi vazifasini bajargan badiiy asarlar, ikkinchi guruhga Imom Ismoil Buxoriyning “Al-jome al-sahih”, Abu Iso at-Termiziyning “Shamoili nabaviya” kitoblarini kiritish mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, mavzu doirasiga ko‘ra, asar qissalari juda rang-barang. Olamdagi butun mavjudot egasi bo‘lgan Alloho ni ulug‘lash, payg‘ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-ona va farzand munosabatlari, erk vaadolat mavzulari shular jumlasidandir. Qissalar hajmi turlicha: Masalan, Yusuf haqidagi qissa salkam 100 sahifani tashkil qilsa, Lut haqidagi qissa bir necha sahifadangina iborat. Qissalarda real hayot voqealari bilan bog‘liq mavzular ham uchraydi. Qissalar bayonida, personajlar tasvirida xalq og‘zaki ijodining bevosita ta’siri seziladi. Asarda ma’rifiy-didaktik hikoyatlar ham mavjud (Luqmon hikoyasi va b.), qissalardagi hikoyatlarga dunyoviy ruh ham singdirilgan (Yusuf qissasi va b.). Rabg‘uziyning bu asari o‘zbek adabiyotida

badiiy nasr yodgorligining yetuk namunasi hamda XIII-XIV asrlar eski o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda asosiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Bu murakkab dunyoning azaliy va adabiy muammolari, har bir darvning dalzabr masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina manaviyat olami yangi ma’no mazmun bilan boyib boradi. Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, barkamol avlodning shakllanishida o‘ziga xos ta’sir o‘tkazadi. O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan Nosiruddin Rabg‘uziy milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasizdir. Nosiruddin Rabg‘uziy merosidan xalqimizni, ayniqsa yoslarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

I BOB BO‘YICHA XULOSA

Turkiy adabiy tillar, turkiy tilda bunyod etilgan yozma manbalar shakllanish va rivojlanishning murakkab bosqichlarini bosib o‘tgan. Ma’lumki, XIII-XIV asrlar turkiy xalqlar va turkiy tillar tarixida alohida va murakkab davrni tashkil etadi. Bu davrda O‘rta Osiyo va Oltin O‘rda muzofotlarida til xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiluvchi asarlar yuzaga keldi. Ushbu asarlarning bir-biridan farq qilishiga ularning juda katta maydonda va turli joylarda bunyod etilgani sabab bo‘lgan. Til jihatidan “Tafsir” “Xusrav va Shirin” “Naxjul farodis” “Sirojul-qulub” obidalariga yaqin turuvchi “Qissasi Rabg‘uziy” O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida “Qissas ul-anbiyo” nomi bilan mashhur bo‘lib, kitobxonlar tomonidan e’zozlab o‘qiluvchi oqin va baxshilar tomonidan sevib kuylanuvchi asarlardan biri hisoblanadi.

Payg‘ambarlar haqidagi afsonaviy qissalarning asosiy qismi diniy xarakterga ega bo‘lib biz ushbu ishimizda Rabg‘uziyning aksariyat “Qur’on” va o‘zga diniy manbalardagi mifologik syujetlarga diqqatini qaratganini guvohi bo‘ldik. Yodgorlikni insonlarni o‘zaro to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, jabr-zulm qilmaslikka, nohaq qon to‘kmaslikka, harom-harish ishlarga undovchi o‘gitlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Xulosa o‘rnida yana shuni ta’kidlash lozimki, Rabg‘uziyning payg‘ambarlar haqidagi qissalari ham badiiylik jihatidan ham til nuqtai nazardan katta yozma yogorlikdir.

I bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

-“Qisasi Rabg‘uziy” asari XIVasrning til xususiyatlari, adabiy-badiiy yo‘nalishlari haqida keng ma’lumot beruvchi muhim yodgorlik hisoblanib, uning o‘rganilishi turkiy xalqlar ilm-faniga, xususan o‘zbek adabiyoti va tili tarixiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan bu asarni nusxalarini ko‘paytirish va uni turli jihatdan tadqiq qilish muallif hayotlik chog‘laridayoq boshlangan;

-turli yillarda uni rus va boshqa millat vakillaridan Samaylovich, Ilminskiy, Gronbek kabi turkolog hamda adabiyotshunoslar tadqiq qilishgan;

-o‘zbek olimlaridan E.Fozilov, H.Dadaboyev, A.Yunusov, B.Abdushukurov kabilar mustaqillik yillarida uni tahrirlab, qayta nashrga tayyorladilar;

-“Qisasi Rabg‘uziy” til xususiyatlari, leksikasi, badiiy xususiyatlari haqida H.Dadaboyev, I.Ostanaqulov, Z.Shukurova, B.Abdushukurovlar tomonidan turli maqolalar e’lon qilindi va nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Xususan, tilshunos olim H.Dadaboyev asarda qo‘llangan turkiy leksemalar, shuningdek, sal fe’lining xususiyatlari haqida keng ko‘lamdagi maqolalarni e’lon qilgan bo‘lsa, I.Ostanaqulov uni adabiy manba sifatida tadqiq qilib, nomzodlik ishini himoya qildi. So‘nggi yillarda Qisasi Rabg‘uziy asari bo‘yicha qilingan yirik tadqiqot bu- B.Abdushukurovning doktorlik dissertatsiyasidir. Olim o‘z ishida “Qisasi Rabg‘uziy” asari leksikasini har tomondan, chuqur tahlil qildi va unda qo‘llangan so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, chegaralangan leksika kabi qator mezonlar asosida ilmiy jihatdan asoslab berdi. Lekin bu muhim yodgorlikni o‘rganish shu bilan tugamaydi. Asar o‘z davri tili, madaniyati, urf-odati, shuningdek, tarixdan xabar beruvchi yirik manba ekan, uni o‘rganish, olingan ma’lumotlarni kelajak avlodga qoldirirish hali uzoq davom etadi.

-“Qisasi Rabg‘uziy” asari nafaqat ilmiy manba sifaida qimmatli, balki u ma’naviy-tarbiyaviy asar sifatida ham o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutadi. Asarning deyarli har bir qissasida kishini ezbilikka undovchi, yomonlikdan qaytaruvchi, savob va gunohning farqini bilishga chaqiruvchi g‘oyalari, mavzular tasvirlangan. Asardan kishi ma’naviy tarbiyasining shakllanishi va yuksalishiga ta’sir ko‘rsata oladigan ibratli hikoyatlar pand-nasihatlar juda keng o‘rin olgan bo‘lib, asar shu jihatdan ham qimmatga egadir.

-“Qisasi Rabg‘uziy” asari shu vaqtga qadar faqat diniy mazmundagi asar sifatida talqin etib kelingan. Aslida qissa va hikoyatlar, hikmat va latifalar zamiriga muallif tomonidan mohirlik bilan singdirib yuborilgan o‘nlab dunyoviy mazmundagi masalalar bahsi bu asarning Sharq adabiyotidagi “Kalila va Dimna”, “Guliston”, “Bo‘ston” singari didaktik asarlar qatorida turadigan badiiy asar ekanining yorqin dalilidir.

-Asarning mavzular ko‘لامи badiiy adabiyot aspektida hech qachon tadqiq qilinmagan. Faqat diniy masalalar yoritilgan asar sifatida e“tirof etilgan.

-“Qisasi Rabg‘uziy” o‘zbek (turkiy) adabiyotga xos o‘nlab janrdagi asarlarning birinchi namunalarini o‘zida mujassam etgani bilan alohida e’tiborga sazovordir. Unda qissa, hikoyat, rivoyat, hikmat, latifa singari nasriy; g‘azal, qit’a, murabba’ singari she’riy janrlarning dastlabki namunalari mavjud.

-Asardagi ayrim janrlar o‘zining keyingi taraqqiyoti davomida butunlay o‘zgarib ketgani kuzatiladi. Jumladan, Rabg‘uziy tomonidan “latifa” sarlavhasi ostida berilgan qismlarda hozirgidek kulgi emas, aksincha kichik hajmdagi hikmatli gap (maqol, aforizm) berilgan.

-Asarda 600 misraga yaqin she’riy asar mavjud bo‘lib, bu Rabg‘uziyning yuksak shoirlilik salohiyatidan dalolatdir.

-Rabg‘uziy o‘zbek (turkiy) adabiyotda ilk bor taxallus qo‘llagan ijodkor hisoblanadi.

-Rabg‘uziy nafaqat mohir qissaxon yozuvchi, ayni paytda o‘zbek adabiyotida murakkab kompozitsion qurilishga ega bo‘lgan dastlabki nasriy asar muallifi va ayrim she’riy janrlarning ilk boshlovchisi hamdir.

II Bob. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan ot va fe’l turkumiga mansub so‘zlarning polisemantik tabiat.

2.1 Ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarning polisemantik xususiyatlari.

Tarixiy-badiiy manbalar leksikasini o‘rganish yozma asarlar yaratilgan davr adabiy tiliga xos xususiyatlar, lug‘aviy sath taraqqiyoti, leksik birliklar semantikasini yoritishda ahamiyatlidir. Yozma yodgorliklarda muayyan davr adabiy tili lug‘at fondining asosiy qismi aks etadi. Shu bilan bir qatorda, muallif mahoratining o‘ziga xos qirralari namoyon bo‘ladi. Eski turkiy tilning leksik xususiyatlarini o‘zida mujassamlantirgan, ijodkor mahoratining yuksak namunasi bo‘lgan yozma manbalardan biri “Qisasi Rabg‘uziy”dir. Bu asar XIII-XIV asr tili xususiyatlari haqida yetarlicha ma’lumot bera oldigan manba hisoblanadi.

Undagi polisemantik so‘zlarni tahlilga tortishdan avval, polisemiya hodisasining tilshunos-olimlarimiz tomonidan berilgan ta’riflariga, izohlariga to‘xtalamiz.

So‘zlar bir yoki birdan ortiq ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bir ma’nolilik hodisasi *monosemiya*, ko‘p ma’nolilik hodisasi esa *polisemiya* deb ataladi. Har ikkala hodisa ham so‘zning semantik qurilishiga xos hodisalardir.

Til hodisasi sifatida monosemiyaning emas, balki polisemianing o‘rganilishi ko‘proq nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki umumiste’moldagi so‘zlarning asosiy qismi ko‘p ma’nolidir.

Polisemiya deyarli barcha so‘z turkumlariga xos hodisadir: *til-muloqot vositasi*, *til-dushman asiri*, *til-dehqonchilik tili – sir* kabilar. Bu yerda omonimiya emas, aynan ko‘pma’nolilik hodisasi yuz bergan. Ya’ni so‘z o‘z lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashmagan holda yana boshqa bir ma’noni ifodalashga xizmat qilishi-bu polisemiyadir.

Mavjud adabiyotlarda ko‘p ma’nolilik (polisemiya) ikki asosiy yo‘l bilan paydo bo‘lishi aytiladi:

- 1) so‘zning yangi ma’no (ma’nolar) kasb etishi natijasida;

2) ko‘p ma’noli so‘zdagi yoki ko‘p ma’noli affikslar vositasida so‘z yasalishi natijasida: *yer-zemlya*, *yer-maydon*, *yer-joy*, *yer-(boshqa yerda gaplashaman)* o‘rin, *vaqt*, *holat*.

Yer so‘zi dastlab xuddi boshqa so‘zlar kabi bir ma’noli bo‘lgan. Uning hozirgi tildagi ma’nolari esa shu so‘z semantik qurilishining taraqqiyoti natijasidir.

Polisemantik so‘z qancha ma’noga ega bo‘lmasin, bu ma’nolar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Xuddi shu xususiyat ko‘p ma’noli so‘zni omonimlardan farqlaydi. Polisemantik so‘z ma’nolari orasidagi aloqa uzilsa (yo‘qolsa), *omonim* vujudga keladi: *gap*.

Til taraqqiyoti jarayonida, uning barcha sohalarida va hodisalarida bo‘lgani kabi, so‘zning semantik qurilishida ham o‘zgarish bo‘ladi:

- a) yangi ma’no paydo bo‘ladi;
- b) ma’no yo‘qoladi.

So‘z ma’nosining rivojlanishi sifat va miqdor o‘zgarishiga, hattoki tildan umuman tushib qolishiga olib keladi: *uchmoq-ko‘z*, *varrak-samalyot*, *osh-palov* kabi.

So‘zlar bir-biriga o‘xshashligi, yaqinligi va nutq situatsiyasida (kontekstda) ishlatilishiga ko‘ra ma’nolarini o‘zgartirishi mumkin. So‘zning ko‘chma ma’nolarda ishlatilishi barcha tillar uchun xosdir. So‘z ma’nosining ko‘chish usuli to‘rt xil bo‘ladi: *metafora*, *metonimiya*, *snekdoxa*, *funktional ko‘chish* (*pero-g‘oz pati-po ‘lat qalam*).

Til tarkibidagi leksik ma’nolar doimo o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ayrim so‘zlar anglatgan ma’nolariga ko‘ra bir-biriga yaqin, boshqalari esa bir-birini inkor etadi, qarama-qarshi ma’no anglatadi. Bu nuqtai nazardan sinonim va antonim so‘zlar farqlanadi. So‘zlar shakl nuqtai nazardan ham ma’lum munosabatda bo‘ladi.

Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar bilangina emas, so‘zlarning leksik ma’nolari bilan ham o‘lchanadi. Demak, so‘zlarning ko‘pma’noliligi – polisemiya til boyligida o‘z o‘rniga ega.

Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdanoq olimlar diqqatini o‘ziga jalgilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o‘rganishdi. O‘rta Osiyoning buyuk leksikografi Mahmud Qoshg‘ariy ham o‘zining mashhur “Devon-u lug‘atit turk” kitobida turkiy polisemantik so‘zlarni qayd etadi. Biroq unda polisemantik so‘zning har bir ma’nosini alohida so‘z sifatida berilgan. Bu holatni “At-tuhfatu zakiyati fil lug‘atit turkiya”da ham, Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” lug‘atida ham ko‘rishimiz mumkin. XV asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy ham turkiy til imkoniyatlarini fors tiliga solishtirib tahlil qilganida, so‘zlardagi ma’no boyligiga to‘xtab o‘tgan edi.

Ma’naviy birlik sifatidagi so‘z leksik va grammatik semantikaga ega. Leksikologiya so‘zga tilning lug‘at tarkibining birligi sifatida yondashib, so‘zning leksik ma’nosining asosiy birligi bo‘lmish leksik semantikani o‘zining asosiy o‘rganish obyekti qilib olgan. So‘zning leksik semantikasi deganda, so‘zning signifikativ, ya’ni mazkur so‘zda mavjud bo‘lgan denotatda aks ettirilgan axborotni hisobga olgan holda voqelikdagi muayyan hodisalarga nisbatan ishlatilishi tushuniladi. Shunday ekan, so‘zning leksik ma’nosini, bir tarafdan, so‘zning tilga aloqador bo‘limgan mazmunlar va mazkur so‘z bilan ifodalanuvchi so‘zning shakli, uning hissiy bo‘yoqlari va ta’sirchanligini o‘z ichiga olgan xarakteristikasini o‘zida birlashtiradi.

Bir so‘zning o‘zi bir nechta tur xil ma’nolarni anglatishi mumkin. Bu ma’nolar o‘zaro aloqador bo‘lishlari, ko‘p ma’noli umumiy tushuncha, ya’ni polisemiya assosidan semantik birlikni tashkil qilishi yoki o‘zaro semantik bog‘lanishga ega bo‘limgan so‘zlarning tovush majmularini hosil qilishi mumkin.

Ko‘p ma’noli so‘zlar, odatda o‘zaro bog‘lanmagan yoki kam darajada bog‘langan predmet va hodisalarni anglatsalar-da, ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nolari o‘zaro asoslantirilgan bo‘ladi va o‘zaro tobe bo‘lgan ma’nolarni ifodalaydi va so‘zning aynan o‘xshashligiga putur yetkazmaydi. Ko‘p ma’nolilik voqelikdagi predmet va hodisalar hamda tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar assosidagi emas, balki ma’nolar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida yuzaga keladi.

Polisemiya eng avval “dolzarb derivatsiya” bog‘lanishlari orqali birlashgan, so‘zlovchilar tomonidan xuddi bitta yasama so‘zlar elementlari o‘rtasidagi munosabatlari kabi anglanadigan ma’nolar qatori sifatida qaraladi. Ko‘p ma’noli so‘zlarning ayrim leksik ma’nolari so‘z semantik tuzilishining tarkibiy qismlari sifatida ichki bog‘lanish orqali o‘zaro bo‘ysundirilganligi ular funksiyasiga ham, rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ayrim so‘zlar gapdan tashqarida ham, gap ichida ham bir ma’noni bildiradi. Bunday so‘zlar bir ma’noli (monosemantik) so‘zlar deyiladi. Gapdan tashqarida bir ma’noni, gap tarkibida boshqa ma’noni ifodalaydigan so‘zlar ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlar deyiladi. Qush, chumchuq, men, sen, kechagi, beshala, bugun kabi so‘zlar bir ma’noli so‘zlardir. Tosh yo‘l, tosh yurak. Bunda tosh so‘zi ko‘p ma’noli so‘zdir. Polisemiya (ko‘p ma’nolilik) tildagi deyarli barcha turkum so‘zlarga xosdir. Yasovchi affikslarning ko‘p ma’noliligi sababli ham yasama so‘z ko‘p ma’noga ega bo‘lishi mumkin: yog‘li (yog‘i bor) qo‘lini sochiqqa artdi. Yog‘li (yog‘i ko‘p) palov.

So‘z dastlab bir ma’noni anglatish uchun qo‘llanib, davrlar o‘tishi va turli lingvistik ta’sirlar vositasida bir necha ma’noni bildiradi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma’nolardan tarkib topishi, ularning o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, ma’nolarning ayni so‘zning o‘ziga oidligi bilan boshqa so‘zlardan ajralib turadi.⁵⁵ So‘z ma’nolarini o‘rganishning turli yo‘llari mavjudligi xususida tilshunos olim Sh.Rahmatullayev shunday deydi: “so‘z ma’nolarinin o‘rganishning xilma-xil yo‘llari bor. Shulardan biri so‘zning semantik strukturasini ma’noli qismlarga bo‘lib tahlil qilishdir. Ko‘p ma’noli leksemalarning har bir sememasini semalarga ajratib tadqiq etish ularning leksik ma’nosini nisbatan aniq belgilashga yordam beradi. Sememaning mazmuni faqat leksik ma’nodangina iborat bo‘lmaydi, unga stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi-xususiyatlar kiradi, bularning barchasi birgalikda semantik strukturani tashkil qiladi.”⁵⁶

⁵⁵Mirtojiyev M.O’zbek tilida polisemiya.T.:Fan, 175.-B. 47.

⁵⁶Rahmatullayev Sh. Leksik ma’noni komponentlab tahlil qilish. O’zbek tili va dabiyoti.-T:, 1978. 4-son.

Sir emaski, nutqimizda ko‘pgina so‘zlar bir necha sememalarda ishlataladi. Muayyan leksema ifodalaydigan ma’nolar yig‘indisi mazkur so‘zning sememalar mundarijasini tashkil etadi. Semema til birligi sifatida abstrakt hodisa. Semema nutqda boshqa leksemalar(sememalar) qurshovida keladi. Mana shunday qurshov leksik qurshov deyiladi⁵⁷. Polisemiyada so‘zning leksik ma’nolari o‘zaro yelpig‘ichsimon(bunda qolgan ma’nolar bosh ma’noga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanadi) va zanjirsimon (bosh ma’noga bog‘langan ma’no boshqa ma’no uchun asos bo‘ladi, ya’ni bu jarayon zanjir shaklida davom etadi) ko‘rinishda bog‘lanadi. Bu ko‘rinishlarning ikkisi ham bir polisemantik so‘zda uchrab, murakkab ko‘rinishdagi bog‘lanishi yuzaga keltiradi. Ularning o‘zaro qaysi ko‘rinishda bog‘lanishi boshqa leksik ma’nolarning bosh ma’noga vositali yoki bevosa bog‘lanishi bilan aloqadordir⁵⁸

XIV asr yodgorligi sanalgan “Qisasi Rabg‘uziy” asari leksikasini tarixiy jihatdan o‘rganish asnosida unda monosemantik so‘zlar bilan bir qatorda polisemantik leksika ham alohida o‘ringa ega ekanligining guvohi bo‘lish mumkin.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari ham o‘z davrining leksik fondidan xabar beruvchi adabiy manba bo‘lib, unda eski turkiy tilga oid leksik birliklar ifodalangan. Unda bir ma’noli so‘zlardan tashqari polisemantik so‘zlardan ham unumli foydalanilgan. Quyida ot so‘z turkumiga oid polisemantik so‘zlarning xususiyatlari haqida ba’zi mulohazalarimizni bayon etamiz.

Yo‘l so‘zi ham asarda ot so‘z turkumi doirasida polisemantik munosabatga kirishgan. Yo‘l so‘zining asarda uch xil ma’noda qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Garchi bu so‘z uch xil ma’noda qo‘llansada, har uchchalasini birlashtiruvchui umumiy sema mavjud. Shu sababli ham biz bu so‘zlarni polisematik so‘zlar deya baholash imkoniga ega bo‘lamiz. Demak, yo‘l so‘zi quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan:

1. Yo‘l-sabab-ul yo‘ldin (45)

⁵⁷ Abdushukurov B. Eski turkiy adabiy til leksikasi. T.: 2015. -B.99.

⁵⁸ Mirtojiyev M.O’zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so’z, 2010. B.186.

2. *Yo'l*-marta –uch yo‘li qurudi (71) yetti yo‘li pichoqni tortdi (79)

3. *Yo'l*-chora – kendu bir yo‘l ko‘rguzgay(87)

Birinchi ma’noda yo‘l leksemasidagi biror bir joyga yoki manzilga yetkazish semasi vosita, sabab ma’nosini bilan sinonim holatda qo‘llangan.

*Ul yo‘ldin turklar aziz va mukarram bo‘ldilar, ya’ni bu o‘rinda yo‘l leksemasida sabab sememasi asosiy o‘ringa chiqqan.*⁵⁹

Asarda yo‘l so‘zining ikkinchi ma’nosini esa marta sememasi o‘rnida kelgan:

Uch yo‘li qurudi (71) yetti yo‘li pichoqni tortdi (79)- uch marta qurudi, yetti marta pichoq tortdi kabi misollarda ko‘rishimiz mumkin. Bunday misollar asarda judayam ko‘p. *Yo‘l* so‘zining bunday ma’noda qo‘llanilishi ham o‘zbek tili, umuman turkiy til uchun me’yoriy holatdir. *Yo‘l* so‘zining marta ma’nosida qo‘llanishida ham uning bosh semasi saqlanib qoladi va u yangi so‘z hisoblanmaydi.

Yo‘l leksemasining uchinchi ma’nosini esa “chora” tarzida asarda namoyon bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham yo‘l so‘zining bu ma’nosini saqlanib qolgan. Yo‘l so‘zining bunday ma’nolar bilan polisemantik munosabatga kirishi ushbu leksemaning semalari bilan bog‘liq. Yo‘l so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday izohlangan.

“Yo‘l-odamlar, jonivorlar va boshqa narsalar qatnovi natijasida yer sathida iz bosilib hosil bo‘lgan uzun, davomli qism, qatnov qismi. *So‘qmoq yo‘l. Qirdagi har tomoniga ketgan yo‘llar.*”⁶⁰ Shuningdek, mazkur izohli lug‘atda yo‘l leksemasining mazkur ma’nosiga yaqin yana 10 ta semasi berilgan.

2. *Umuman, kishilar yoki transport qatnovi uchun maxsus belgilangan yer bo‘lagi. Avtomashina qatnaydigan yo‘l*

3. *Kema va samolyotlar qatnashi uchun maxsus belgilab qo‘yilgan yo‘nalish, trassa. Suv yo‘li, havo yo‘li*

4. *Yo‘nalishdagi harakat jarayoni, yo‘lda davom etayotgan yurish.*

⁵⁹ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-45

⁶⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild. T., “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006. B. 276

5. *Yurish, qatnov yo‘nalishi.....uham yo‘lini boshqa yoqqa soldirib ketibdi.*
A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

6. *Biror joy, makonga sayohat yoki boshqa maqsadda qilinadigan yurish; safar. Yo‘l anjomlari.*

7. *Bosib o‘tiladigan oraliq; masofa.Bunday buyon motosikl yo‘lingizni yaqin qiladi.*

8. *Ma’lum bir transport vositasi uchun yo‘nalish qurilmasi. Temir yo‘l. Tramvay yo‘li.*

9. *Ayrim narsalarning yo‘nalish chizig‘i, joy oralig‘i. Nafas yo‘li.*

10. *Biror narsaga, yuzaga tortilgan, tushirilgan chiziq. Bir yo‘li oq, bir yo‘li moshrang beqasam.*

Demak, yo‘l leksemasining yuqoridagi ma’nolari uning bosh, asosiy ma’nosidan anglashilgan sema asosida hosil bo‘lgan. O‘nta ma’noning deyarli hammasida “*uzun, davomli qism, qatnov qism*” semalari asosida yangi ma’no ottenkasi hosil qilingan. Yo‘l leksemasi bergen asosiy ma’no asosida yondosh ma’nolar paydo bo‘lgan. Endi “yo‘l” so‘zining polisemantikligi xususida ham xuddi shu izohli lug‘atdan javob izlaymiz. Yo‘l so‘zining ko‘chma ma’nolari sifatida o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagi maqlolar berilgan:

1. Biror narsaning yo‘nalish, kelish-ketish oqimi, yo‘nalishi. *Hayot o‘z yo‘lidan borar, bahor bolalarga o‘z quvonchi, o‘z shodliklarini saxiylik bilan taqdim etgan edi.*

2. Faoliyatda amal tarzi, qilinadigan, tutiladigan ish-amal. *Hozir senlarga ikki yo‘l: o‘g‘il qizingni sotib bo‘lsa ham o‘ttiz ikki tangani Azizbek xazinasiga to‘lash yoki es borida etakni yopib, Azizbekni oradan ko‘tarish.... A.Qodiriy. O‘tkan kunlar.*

3. Kuy, qo‘sinq va sh.k.da o‘ziga xos usul. *Orziy-u armonimni she’riy yo‘lda qaytadan so‘zlab turibman, balki yoshlik bo‘lib bahona.* A.Oripov.

4. Imkon chorasi. *Hech bo‘lmasa jonni saqla sen. Bir yo‘l topib qochmoq kerak bu eldan.* H.Olimjon.

5. Ko‘makchi vazifasida sabab, maqсад ма’ноларини bildiradi: borasida, uchun. *Kimiki xalq yo‘lida, xalq g‘amida ter to‘ksa, qo‘li hamma yerda baland bo‘lsin.* M.Ismoiliy.

Endi “yo‘l” leksemasining “Qisasi Rabg‘uziy”да berilgan ма’нолари xususida fikr bildiradigan bo‘lsak, asarda “yo‘l” so‘zining o‘z ма’носидан tashqari yana uch ма’носи qо‘llangan. Birinchi ko‘chma ма’носи hozirgi tilimizda “sabab” leksemasiga yaqin turadi.

1. Yo‘l-sabab: *Somni arab va ajam viloyating‘a izdi. Yofasni Turkiston viloyating‘a izdi. Qamug‘ turklar Yofas urug‘i turur. Ul yo‘ldin turklar aziz va mukarram bo‘ldilar.*⁶¹

Olingen misolni tahlilga tortadigan bo‘lsak, “yo‘l” leksemasi “Qisasi Rabg‘uziy” asari yaratilgan davr, ya’ni XIV asrda “sabab” degan ма’noni bildirganligini ko‘rsatadi. Bu so‘z bir qarashda polisemantik emas, omonim so‘zga juda o‘xshaydi. Lekin leksemani kontekstda anglatayotgan ма’носи va “yo‘l” leksemasining asosiy semalari bilan qiyoslaganda, bu so‘z omonim emas, balki polisemantik so‘z ekanligi ма’lum bo‘ladi.

“Marta” ма’носини anglatish uchun asarda yo‘l so‘zi qо‘llangan.

2. Yo‘l-marta –*Yana qasd qildi ikki ilki qurudi. Yana duo qildi ersa yanao‘ngaldi. Uch yo‘li qurudi.*⁶² *Yetti yo‘li pichoqni tortdi, o‘tmadi. Qahr qilib pichoqni yerga chaldi.*⁶³

Demak, asardan olingen misollar vositasida “yo‘li” leksemasini ikkinchi ма’носини tahlil qilishga urinamiz. Asarning juda ko‘p o‘rinlarida ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan ushbu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “**marta**” ма’носига qо‘llanilgan. Buning asosiy sababi yana yo‘l leksemasining dominant ма’носига borib taqaladi. Ma’lumki, yo‘l so‘zida biror narsa erishish uchun yo‘nalish, harakat ма’нолари mavjud. Ushbu so‘zning asarda “**marta**” ма’носига qо‘llanilishida ham shu ма’но nozikligidan foydalanilgan hamda yo‘l leksemasi marta so‘zi bergen ма’noni ifodalsh uchun xizmat qilgan.

⁶¹ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-45.

⁶² Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-71.

⁶³ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-79.

Yo'l leksemasi “Qisasi Rabg‘uziy” asarida yana “chora” “imkon” ma’nolarini berish maqsadida foydalanilganini ko‘rish mumkin.

3. Yo'l-chora: *Malik aydi: “Zevolg‘a boring, yukunung, yolboring bo ‘lg‘aykim, sizni qutqarg‘ay yo kendu bir yo'l ko 'rguzgay”*.⁶⁴

Bu o‘rinda “yo‘l” leksemasi chora, imkon ma’nolarini berish maqsadida foydalanilgan. Demak, yo‘l so‘zi asar yaratilgan davr, ya’ni XIV asrda polisemantik xususiyatga ega bo‘lib, asosiy ma’nosidan tashqari yana turli ma’nolarni anglatgan va adabiy tilning shakllanish jarayonida badiiy adabiyotga ham shu ma’nolari bilan kirib kelgan.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida ot so‘z turkumiga mansub so‘zlardan yana biri bu zamon so‘zidir. Bu so‘z ham asarda polisemantiklik hosil qilgan. **“Zamon”** leksemasi o‘zbek tilining iozohli lug‘atida shunday izohlangan:

Zamon-davr, vaqt. 1. Materiya (obyekt) holatlarining hamda hodisa (jarayon)larning izchil almashinish shakli; davomlilik, takrorlanmaslik, qaytarilmaslik kabi umumiylar xossalarga ega bo‘lgan vaqt.

2. So‘z borayotgan payt, umuman vaqt, payt, davr, mahal. *Hozirgi zamon*.

3. Biror muhim, o‘ziga xos hodisa, tarixiy voqealro‘y bergan yoki biror shaxs, hokim tabaqa, sulola hukmronlik qilgan davrni qamrab olgan vaqt. *Tinchlik zamon*.

4. Kutilgan payt, davr-u davron. *Umrlaring uzun bo‘lsin. Zamonlaring kelibdi*.

5. Maxsus shakllar yordamida harakatning nutq paytiga munosabatini bildiruvchi fe’l kategoriyasi. *O’tkan zamon. Kelasi zamon*.

6. Erkaklar ismi.⁶⁵

Asarda esa “zamon” leksemasi o‘z ma’nosidan tashqari yana “vaqt” ma’nosida qo‘llanilgan.

1. Zamon –vaqt- zamon bergil(66)

⁶⁴Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-87.

⁶⁵О‘zbek tilining iozohli lug‘ati. Ikkinci jild. T., “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006. B-128.

Zamon so‘zining yuqorida anglatadigan ma’nolarini ko‘rib chiqdik. “*Qisasi Rabg‘uziy*”da bu so‘z hozirgi ma’nolaridan tashqari fursat ma’nosini bildirib, polisemantiklik hosil qilgan.

“Namrud aydi: “**Zamon**berg‘il, kengashayin”. **Zamon** berdi.”⁶⁶ Asardan olingan parchani tahlilga tortadigan bo‘lsak, zamon so‘zining vaqt, fursat ma’nosida qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Bu parcha Namrud va Ibrohim (a.s.)ning dialogidan olingan bo‘lib, unda Ibrohim (a.s) Namrudga musulmon bo‘lishga chaqiradi. Yuqoridagi parcha esa Namrudning Ibrohimga javobidir. Ma’lum bo‘ladiki, Namrud Ibrohimning taklifini o‘ylab ko‘rib, maslahatlashish uchun undan biroz vaqt, fursat so‘rayapti. Fursat, vaqt ma’nosini ifodalash uchun esa zamon so‘zidan foydalanilgan. Demak, asarda zamon so‘zi o‘z ma’nosidan tashqari yana boshqa bir tushunchani ifodalashga xizmat qilgan. Ammo zamon bu ma’nosi bilan omonim so‘zga aylanmagan. Chunki har ikkala leksemada ham “zamon” so‘zi beradigan umumiyl tushuncha ifodalangan.

“*Qisasi Rabg‘uziy*” asarida eng ko‘p polisemiya hosil qilgan so‘z bu **bosh** so‘zidir. Bosh so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha izohlangan:

Bosh-I Tananing bo‘yindan yuqorigi, oldingi(odamda, hayvonlarda) qismi; kalla. *Bosh kosasi. Bosh miya.*

2. Ko‘chma. Aql-hush, miya. Bosh bilan ish qilmoq.
3. Boshliq, rahbar. *Yaxshi yigit-davraning boshi.*
4. Sifat.Lavozim, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi. Bosh vrach, bosh agronom.
5. Ulkan, katta, asosiy. *Ozgina yurgach, “Bog‘izog‘on”ning bosh arki oldidan chiqdilar.* Oybek, Navoiy.
6. Sft. Eng muhim, asosiy, yetakchi. *Bosh masala, bosh sabab.*
7. Sft. Eng oldingi, birinchi. *Bosh bola, bosh kelin.*
8. Ko‘chma. Odam, kishi. *Bir boshga bir o‘lim.*
9. Sanoq sonlar bilan. Chorva hisobida har bir adad jonivor. *O‘n bosh ot.*

⁶⁶ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-66.

10. Tirik narsalarning tepe qismi, uchi, cho‘qqisi. *Shamol bo ‘lmasa daraxtning boshi qimirlamaydi.*⁶⁷ Xullas, lug‘atda bosh so‘zining 20 ta ma’nosi sanab o‘tilgan va izohlangan. “Qisasi Rabg‘uziy”da esa “bosh” leksemasining quyidagi ma’nolarda qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin.

1. **Bosh**-o‘z ma’nosida - boshlarin ilking‘a olg‘il-(85)

2. **Bosh**-ko‘chma ma’no-tog‘ boshindin uchdilar(85)

“Yorlig‘ bo ‘ldi: bu to ‘rt qushlar o ‘lturgil, **boshlarin** ilking‘a olg‘il, qolg‘anin bir idishga elib to‘g‘rag‘il”, “**boshlarin** ilkig‘a olib, berk tutub undadi... ”⁶⁸. Demak, asardan olingan matnni tahlilga tortamiz. Parchaning mazmuni quyidagicha: buyurildi, bu to‘rtta qushni o‘ldirgin, ularning boshlarini qo‘lingga olgin, qolganini bir idishga solib to‘g‘ragin, maydalagin.

Keltirilgan parchada “bosh” leksemasi aynan o‘zining birinchi va asosiy ma’nosida qo‘llanilgan. Uning asosiy ma’nosi, ya’ni tananing bo‘yindan yuqorigi, oldingi(odamda, hayvonlarda) qismi semasida qo‘llangan. Bu yerda hayvon, ya’ni qushning bosh qismi ma’nosida tananing bo‘yindan yuqori ma’nosini beryapti. Demak, bosh leksemasi XIV asrda ham xuddi bugun anglatayotgan ma’noni bergen sof turkiy so‘z hisoblangan. Bosh so‘zi asarda faqat o‘z ma’nosida qo‘llanilib qolmasdan, balki ko‘chma ma’nolarda ham istifoda etilib, asar rang-barangligiga ta’sir qilgan. Shu bilan birga bu so‘zning XIV asrda qanday hollarda hamda qanday ma’nolarni anglatishi haqida ham ma’lumot bergen.

“To ‘rt ulush qilg‘il. To ‘rt tog**boshinda** qo‘zg‘il”, “tengri yorlig‘i birla u tog**boshindin uchdilar**”. Ya’ni to‘rt ulush qil va to‘rt tog‘ boshiga qo‘ygil. Tangri yorlig‘i bilan tog‘ boshidan uchdilar. Bu kontekesda “**bosh**”so‘zi ifodalagan ma’no bilan yuqorida tahlil qilgan parchamizdagi ma’no bir xil emas. Lekin ular alohida-alohida so‘z ham emas. Agar bosh o‘z ma’nosida “*tananingeng yuqori qismi*” semasiga ega bo‘lsa, bu so‘zda uning aynan shu semasidan foydalanilgan holda ko‘chma ma’no hosil qilingan. Ya’ni aynan odam yoki jonli hayvonning emas, balki biror predmetning xuddi inson boshidek eng yuqori qismi ma’nosida

⁶⁷O‘zbek tilining izohli lug’ati. Birinchi jild. T., “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006. B-332.

⁶⁸Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-66.

qo‘llanilgan. **Tog‘ning boshi** birikmasida ham aynan mana shu sema yetakchilik qilgan. Demak, o‘xshshlik asosida ma’no ko‘chishi asar yaratilgan davrda ham faol bo‘lgan va bu usulda juda ko‘p so‘zlar polisemiyaga uchragan. Vaqt o‘tishi bilan esa ba’zi ko‘p ma’noli so‘zlar o‘rtasida ma’no bog‘liqligoi yo‘qolib, omonim so‘zlarga aylangan. Lekin bosh so‘zi har doim ham ko‘chma ma’noga ega polisemantik so‘z hisoblanadi.

Ot so‘z turkumiga mansub so‘zlardan “” Eski turkiy adabiy til leksikasi” qo‘llanmasida quyidagi so‘zlar polisemiya hodisasiga uchragan deya qayd etilgan:

Tam:

Bu leksema Turfon matnlari va “Devon-u lug‘otit turk”da devor, uy ma’nolarida kelgan. *Ol tamqa tirandi-* u devorga suyandi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida uning quyidagi ma’nolari keltirilgan:

1. Devor. *Ul tam boshig‘a chiqti ersa, ko‘rganin aytmay o‘zin nari saldi.*
2. Uy. *Qarabasi Zulayho ilkin tutup ciqaradi, yol basinda bir tam tubinda o‘lturdi.*
3. Biror binoning ustini berkitib turuvchi qismi: *yel anda kirip tartip chiqaru ew tamlaring‘a toqiyu halak qildi.*

Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, mazkur so‘zning “devor” sememasini qolganlari uchun denotat , ikkinchi va uchinchi ma’nolar esa konnotativ sema hisoblanadi. Ayni paytda shuni ta’kidlash joizki, so‘zning “binoning ustini berkitib turuvchi qismi” ma’nosi qissa tiliga xos xususiyat. Chunki ushbu semema asardan oldin va u bilan bir davrda yaratilgan manbalarda uchramaydi.⁶⁹

Shuningdek, asarda *yosh*, *o‘ng* kabi leksemalarning ham ko‘pma’noliligi va ularga misollar ham keltirilgan. Shuningdek, ularning ilk eski turkiy til, turkiy tilga munosabati ham tahlilga tortilgan. *Uch*, *oy*, *tuz* kabi leksik birliklarning qadimgi yodgorliklar tiliga munosabati va ularning “Qisasi Rabg‘uziy” yodnomasidagi o‘z va hosila ma’nolari o‘rganilgan, tahlil qilingan.

⁶⁹ Abdushukurov B. Eski turkiy adabiy til leksikasi. T.: Tafakkur bo’stoni, 2015. B. 115.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, “Qisasi Rabg‘uziy” asarida uchragan leksik birliklar, xususan, ot so‘z turkumiga mansub birliklarning aksariyati asarda polisemantik munosabatga kirishgan va o‘z o‘rniga, ya’ni matnda qo‘llanilishiga ko‘ra turli ma’nolarni, hosila ma’nolarni anglatib kelgan. Ularni o‘rganish va tahlil qilish tariximizni, uning lug‘at boyligini o‘rganish uchun muhimdir.

2.2 Fe'l so'z turkumiga mansub so'zlarning polisemantik xususiyatlari.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘z davrining leksik imkoniyatlaridan, boyligidan yaxshigina xabar bera oladigan adabiy yodgorlik sanaladi. Unda ot, sifat, son so‘z turkumlariga oid leksik birliklar bilan bir qatorda fe'l so'z turkumiga oid so'zlar ham xilma-xil ma'noda qo'llanib, asarning badiiy xususiyatlarini oshirgan. Shu bilan birga XIV asrda iste'molda bo'lgan fe'l so'zturkumidagi leksemalar haqida ma'lumot bergen, shuningdek, bu asarda fe'lga oid aksariyat fe'llar polisemiyaga uchragan. Quyida ularning umumiy jadvalini keltiramiz va har birini alohida-alohida tahlil qilishga urinamiz.

Fe'l	Ma'nosi	Misol
Og'moq	ko'tarilmoq	<i>tutun og'di</i>
	Chiqarmoq	<i>ko'kka og'durdi</i>
Turur	dir bog'lamasi	<i>Yinjudin turur</i>
	qilmoq	<i>mani fusus turur</i>
	bo'lmoq	<i>urug'idin turur</i>
Inmoq	Kelmoq	<i>Dunyog'a ingan</i>
	Tegmoq	<i>Egniga indi, ko'kdin o't indi</i>
Izmoq	Yoymoq	<i>Qamug'in dunyoga izdi</i>
	Jo'natmoq, yubormoq	<i>Rum viloyating'a izdi</i>
	Tashlamoq	<i>Yusufni qarindoshlari belin bog'lab quduqg'a izdilar</i>
Kesmoq	Uzmoq	<i>umid kesdi</i>
Kechmoq	o'tmoq	<i>o'tuz yil kechdi</i>
Tikmoq	Ekmoq	<i>yig'och tikdi</i>
Saqlamoq	to'xtatmoq	<i>yo'l saqlab</i>

Asarda qo'llanilgan polisemantik ma'noga ega fe'llarni tahlil qilar ekanmiz, ularning eski turkiy til va hozirgi davr tiliga bo'lgan munosabatini keyingi bobimizda tahlil qilishga urinamiz.

“Qisasi Rabg‘uziy” yodgorligida ko‘pma’noli so‘z sifatida qatnashgan fe’llardan biri bu ***og‘moq*** leksemasidir.

Og‘moq fe’li asarda har xil o‘rinlarda turli ma’nolarni ifodalab kelgan.

1. *Og‘moq-ko ‘tarilmox- tutun og‘di (12)*
2. *Og‘moq-chiqarmoq-ko ‘kka og‘durdi (14)*

Og‘moq fe’li holat fe’li sanaladi. U o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’riflangan:

Og‘moq

1. Biror tomonga yotib, qiya holat olmoq, qiyshaymoq, engashmoq, yonboshlamoq. *Kema o‘ng tomonga og‘di. Devor og‘ib qoldi.*

3. Biror tomonga, pastga sirg‘anib osilib tushmoq. *Qorinbog‘ bo‘shab, otning egari chap tomonga og‘ib ketibdi.*
4. To‘g‘ri, tik yoki belgili yo‘nalishdan chetga chiqmoq. *Samolyot kursdan og‘di.*
5. Burilmoq, chetga chiqmoq, biror tomon siljimoq. *Yaxshiboyev gap mavzusi chetga og‘ib ketganini sezdi.*
6. Bo‘linmoq, chalg‘imoq(o‘y-xayolga nisbatan). *Birdan diqqati og‘ib, ularga quloiq tutdi.*
7. To‘g‘ri yo‘ldan adashmoq, chetga chiqmoq, toymoq. *Menimcha, o‘rtoq Qo‘chqorov partiya yo‘lidan og‘ib, yot unsurlar ta’siriga tushib qolgan.*
8. Biror tomonga yo‘nalmoq, qaramoq. *Juvonning ko‘zlari sekin yerga og‘di.*

Xullas, og‘moq fe’lining 10 ta ma’nosи o‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilgan bo‘lib, ular anglatgan ma’nolar bilan “Qisasi Rabg‘uziy”dagi anglatgan mazmun o‘rtasida farq mavjud. Quyida og‘moq fe’lining asarda uchragan shakllarini tahlil qilishga va ularning semalarini aniqlashga harakat qilamiz.

*Ul ko ‘pikdin tutun og‘di, ul tutundin ko ‘kni yaratdi.*⁷⁰

⁷⁰ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-66.

Berilgan ushbu misolda *og‘moq* fe’li ko‘tarilmoq ma’nosida kelgan. Ya’ni ko‘pikdan tutun ko‘tarildi, u tutundan ko‘kni yaratdi. Bu yerda *og‘moq* fe’lining bu ma’noda qo‘llanilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, *og‘ish* harakati bir narsaning boshqa bir tomonga aylanishini bildiradi. Bu yerda tutunning osmonga ko‘tarilishi harakatini ifodalash uchun ayni shu fe’ldan foydalanilgan. Bu fe’lning asarda polisemantik holda juda ko‘p qo‘llanganini boshqa misollar orqali ham kuzatishimiz mumkin. Qolgan boshqa o‘rinlarda bu fe’l turli ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ularning hammasini birlashtirib turuvchi umumiyl semaga ega. Shu sababli ham bu so‘z omonim emas, polisemantik so‘z sifatida asarning badiiy qimmatini oshirishga hamda takrorning oldini olishga xizmat qilgan. Quyida *og‘moq* fe’lining boshqa ma’nolari bilan tanishib chiqamiz.

Yana bir konteksda *og‘moq* fe’li *chiqarmoq*, *ko‘tarmoq* ma’nolarini berish uchun qo‘llanilgan.

Anda kezin mavlo azza va jalla Horisni ko‘kka og‘dirdi. Anda yama ukush toat qildi ersa, ikinchi qat ko‘kka og‘durdi.

Bu parchada ham *og‘moq* fe’li *ko‘tarmoq*, *chiqarmoq* ma’nolarida kelgan. Agar *og‘moq* fe’lining har ikkalasini matn mazmunidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo‘lsak, ular umumiyl bir sema ostida birlashganini guvohi bo‘lamiz. Bu sema ma’lum bir past joydan baland joyga ko‘tarilish semasidir. Tutun *og‘di*, *ko‘kka og‘di* birikmalarining har ikkalasida ham xuddi shu sema mavjud. Ammo ulardagi ma’lum bir ma’no nozikligi tufayli aynan bir xil ma’noni emas, balki har xil ma’noni anglatib polisemiyani hosil qilgan.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida eng ko‘p qo‘llangan polisemantik fe’l bu ***turur*** leksemasidir.

Turur leksemasi aslida bog‘lama vazifasini bajargan. Bog‘lama vazifasida kelib faqat bir ma’noni bildirmasdan, turli ma’nolarni anglatgan. Yana asardan olingan misollarga murojaat qilamiz.

*Ya'juj va Ma'juj Yofas urug'idin turur.*⁷¹ Rum xalqi qamug' Iyazning urug'indir tururlar.⁷² Bu o'rinda *turur* leksemasi *bo'lmoq,-dir* bog'lamalari bajargan vazifasida qo'llangan. Ya'ni bu konteksda *turur* leksemasi “*bo'lur*” degan ma'noni anglatgan. Bundan tashqari turur leksemasi xuddi shunday bog'lama vazifasida, lekin aynan *bo'lmoq* emas, balki –dir, qilmoq ma'nolarida ham qo'llangan.

*Ul Shayton turur, tosh tashlagil ketsun.*⁷³ Kabi misollarda turur leksemasi aynan bir mustaqil so'zni emas, balki –dir bog'lamasi ma'nosini berish uchun foydalilanilgan. Ya'ni turur leksemasi o'zidan oldin kelgan ismlar bilan birikib, ularni kesim sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Natijada **ism+turur** murakkab ot kesim hosil bo'lган. Bu sintaktik birlik bizga XIV asr gap qurilishi haqida tasavvurimiz uchun yaxshigina ma'lumot beradi va gaplarni sintaktik jihatdan ham tahlil qilish kerakligi haqidagi xulosani ham taqdim etadi. Turur leksemasining bog'lama bajargan vazifalardan tashqari qilmoq ma'nosini berish uchun ham istifoda etilganini asardan olingan misollar yirdamida tahlil qilamiz.

*Ismoil otasini undadi, aytdi: “Bir pir kelib mani fusus turur”*⁷⁴ berilgan ushbu konteksda turur leksemasi qilmoq fe'lini ifodalash uchun qo'llanilgani kuzatishimiz mumkin. Ismoil otasiga aytdi: bir pir kelib, meni fusus qiladi. Bu o'rinda turur so'zining bog'lama vazifasidan chetlashib, ko'makchi fe'l sifatida *ot+fe'l* qolipida yangi fe'l hosil qilganini ko'rish mumkin. Endi bu turur avvalgi gaplardagi turur fe'li anglatgan ma'noni bildirmayapti. Shu sababli u avvalgi turur leksemalari bilan polisemantik emas, balki omonim munosabatga kirishgan. Demak, bundan shunday xulosa chiqadi: turur leksemasi XIV asrda o'z ma'nosidan tashqari *bo'lmoq hisoblamoq, -dir* kabi bog'lamalar ma'nosini bergen va bevosita nutqda qo'llanilgan. Shuningdek, u mustaqil so'z sifatida qilmoq ma'nosini anglatib, omonim so'z hosil qilgan.

⁷¹ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-46.

⁷² Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-83.

⁷³ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-78.

⁷⁴ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-78.

Inmoq fe’li ham asarda polisematik munosabatga kirishgan so‘z sifatida uchraydi. Xususan, uning kelmoq, tegmoq, qo‘nmoq kabi bir-biriga yaqin ma’nolarni anglatish uchun turli o‘rinlarda qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

*Ul nur Odamning olnidin o‘ng yanoqing‘aindi. Yana egniga indi.....*⁷⁵bu parchada *inmoq* fe’li *tegmoq*, *qo‘nmoq* ma’nosini bildiryapti. Shu bilan birga bu fe’l boshqa o‘rinlarda *kelmoq*, *kirmoq* ma’nolarini ham anglatganini ko‘rish mumkin. Ammo har ikki holatda ham *inmoq* fe’li o‘z semalaridan tashqari semani bildirish uchun emas, balki bir necha xil semalarni turli vaziyatlarda kuchaytirib qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida eng ko‘p qo‘llangan va shu bilan birgan turli ma’no tovlanishlarini hosil qilgan fe’l *bu-izmoq* fe’lidir. Ushbu fe’l asarda faol qo‘llangan bo‘lib, turli gaplarda turli ma’nolarni anglatgan. Biz quyida uning ko‘p ma’nolilik xususiyatiga to‘xtalamiz. Ularni imkon qadar tahlil qilishga urinamiz.

1. *Izmoq-chiqardi, yoydi- qamug‘in dunyog‘a izdi* (23)
2. *Izmoq-jo ‘natmoq-Rum viloyating‘a izdi*(83)
3. *Izmoq-tashlamoq- Yusufni qarindoshlari belin bog‘lab quduqg‘a izdilar*(108)

Izmoq fe’li, asosan, *chiqarmoq*, *yoymoq*, *jo ‘natmoq*, *tashlamoq* kabi ma’nolarda qo‘llangan. Agar bu fe’lni biz sanagan ma’nolarni mutlaqlashtirsak ham baribir hammasida bir umumiylama sema saqlanib qoladi. Ularning har birini alohida-alohida tahlil qilish orqali qay jihatdan ayni bir ma’noda emas, balki ma’lum bir ma’no nozikliklari bilan polisemantik ekanligini isbotlashga urinamiz.

Birinchi misolda bu fe’l *chiqarmoq*, *yoymoq* ma’nolarida kelgan:

*Va bir rivoyatda kelmish:qamug‘in dunyog‘a izdi, dunyoni ko‘rib keeling teb.*⁷⁶ Hammasini dunyoga chiqardi, yoydi. Dunyoni ko‘rib keling deb.

Ikkinchi misolda esa bu leksema “*jo ‘natmoq*” ma’nosini bildirgan.

*“Is ‘hoq ularning adovatindin qo‘rqub Iyazni Rum viloyating‘a izdi”*⁷⁷. Dunyog‘a izmoq bilan Rum viloyating‘a izmoq birikmalari shaklan, qisman

⁷⁵. Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-18.

⁷⁶ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-18

ma’nan bir xil ko‘rinsa-da ularning har ikkalasida ma’lum bir farqlovchi semalar mavjud. Xususan, *dunyog ‘a izdi* birikmasida izmoq fe’li dunyoga yoydi, chiqardi ma’nolarida kelgan bo‘lsa, Rum viloyating‘a izdi misolida esa *jo ‘natmoq* semasi mavjud. Mana shu ikki farqlovchi sema izmoq fe’lining polisemantikligini hosil qilgan. Ammo bu fe’llardan umumiyligiga sema ham mavjud, bu bir joydan ikkinchi bir joyga jo‘natmoq, yubormoq semasidir.

Asarning yana bir o‘rnida esa izmoq fe’li tushirmoq ma’nosida qo‘llangan.

*Uchunch, Yusufni qarindoshlari belin bog‘lab quduqg‘a izdilar*⁷⁸ bu gapda izmoq fe’li tushirmoq degan ma’noda boshqa o‘rinlarda qo‘llangan izmoq fe’liga omonimlik hosil qilgan.

Shuningdek, filologiya fanlari doktori B.Abdushukurovning tadqiqotida *al*, ya’ni olmoq fe’li polisemantik ekanligi aytilib, uning quyidagi ma’nolari keltiriladi:

1. *Al*-leksemasi “Qisasi Rabg‘uziy” yodnomasida o‘zining bosh denotataiv, ya’ni “biror narsani ushlab yoki tutib qo‘lga kiritmoq”ma’nosida qo‘llanishda davom etgan.
2. Xarid qilmoq, sotib olmoq. *Mundag‘ sigir kimda bar ersa keltursun ag‘ir baha berip alurmen.*
3. Emmoq. *Halima sag‘ emukin berdi ersa aldi.* Bu o‘rinda mazkur fe’l em fe’lining sinonimi sifatida ko‘zga tashlanadi.
4. Ketkazmoq, yo‘qotmoq. *Yer uza suvlarin aldi, ko‘k yag‘madi.*
5. Asramoq, o‘g‘il qilib olmoq. *Sen bu og‘lanni mening qapug‘imda qo‘ygil, kishilar kelip asramaqa qolg‘aylar. Anchada sen asramaqqa alg‘il, tedi.*
6. Ko‘ngil ovlamoq, taskin bermoq. *Ko‘ngullarni yaxshilik birla olg‘aysen.*
7. Tutmoq. *O‘g‘lum teyu ilkimdan kim alg‘ay, ulg‘artmista kimni atam tegay teb yig‘ladi.*

⁷⁷ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-83

⁷⁸ Носириддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-китоб..Ёзувчи. – Т.: 1990. Б-108

8. Mehmon qilmoq, yedirib-ichirmoq. *Yarlig*‘: *maning xalqimni mandin o‘zga kim qo‘nuqlay olur.*
9. Bajarmoq, uddalamoq. *Bani israelida birag‘u ummating bu yukni ko‘tara olmag‘ay.*
10. Oyoq ostiga lmoq, bosib o‘tmoq. *Suw keldi asuqina tegdi, ogli bar erdi , ani ayaq astiga alip tepasinga asdi.*
11. Ruxsatsiz, noo‘rin qo‘lga kiritmoq.

Ayni paytda leksik birlik i-ib affiksli ravishdoshlar hamda ravishdosh formasidagi boshqa fe’llar bilan birikib, qo‘shma fe’llar hosil qilgan va bir qator semalarni ifodalagan:

12. Tortib olmoq. *Seni og‘lanlaring birla o‘ltururman, qizingni tartip alurman.*
13. Olib qolmoq. *Biz Yusufg‘a mundag‘ o‘gratu berduk, qarindashingni bu ada birla alip qalg‘il.*
14. Olib bormoq. *Yigirmi yeti kishi o‘z mavlalarindin alu bardi.*
15. Keltirmoq, olib kelmoq. *Bu kelmisda yarmaqlari yoq erdi, tawar, juval, arg‘amchi, alip keldilar.*
16. Yetkazmoq, xabardor qilmoq. *Bu kun bizing hasratimizga as afar qilding ummatlaringa alu barg‘il.*

Shuningdek, tadqiq etilayotgan leksemaning xarakterli tomoni shundaki, u obida tilida yetakchi fe’l sifatida ot turkumidagi so‘zlar bilan birgalikda qo‘shma fe’llar yasagan va quyidagi ma’nolarni anglatgan:

17. Qo‘lga kiritmoq, o‘lja qilmoq, ega bolmoq. *Ani ko‘rip qamug‘ musulmonlar tabir aytdilar. G‘animatlar aldilar.*
18. Ishg‘ol qilmoq. Fath etmoq. *Qirq yildin so‘ng yanaa yabandin kelib Misrni oldilar.*
19. Ko‘tarmoq. *Ya‘qub yuzunda Yusufni Rubil egnинга aldi....*
20. Uylanmoq, xotin olmoq. *Habil birla tu’;gan qizni Qabilga berur bo‘ldi ersa Qabil unamadi, maning birla tug‘gan qizni alurman tedi.*

- 21.Ushlamoq. *Muhammad(s.a.v.)ni ko‘rdilar tewachilar to‘nin kiymis buruduqni beliga baglamish, ilkinga tayaq almish.*
22. Javob qaytarmoq, javob bermoq. *Sarsabil idi yarliqi birla kelip Yunusg‘a salam qildi. Yunus alik aldi.*
23. Asar muallifi “jang qilmoq, urushmoq” ma’nosini urush leksemasi bilan birgalikda al fe’liga ham yujlagan. *Jalut ham ilgari keldi, aydi: ne birla urushersaan? Ellik-ellik birla ilik aliship, atlar yarisip, arqish tushgan yerga keldilar.*
24. Birovning nomini eslamoq, yo‘qlamoq. *Rasulni andag‘ dushman erdikim, atinag‘zing‘a almas erdi.*
25. Judo qilmoq, ayirmoq. *Ya’ni manga bir mo‘jiza ko‘rguzgil, qo‘q ersa bashingni alurman tedi.*
26. Asir olmoq. *Rasul alayhis-salam sahabalr birla ularning xatunlarin ogul qizlarin bulun alib keldilar.*
- 27.Qo‘yniga olmoq.
- 28.Vafot etmoq.

Al ko‘makchi fe’l shaklida keng qo‘llaniladi:

29. Namuna, ibrat olmoq.
30. Sevib qolmoq.
31. O‘ch olmoq.

“Biror narsani ushlab yoki tutib qo‘lga kiritmoq” o‘rganilayotgan fe’lning dastlabki ma’nosi bo‘lib, qolganlari hosila ma’nosi sanaladi.⁷⁹

Bizga ma’lumki, so‘zning leksik ma’nosi orqali yuzaga kelgan ikkinchi leksik ma’nosi hosila ma’no deb nomlanadi va bu o‘zbek tilining semasiologiyasi bilan maxsus shug‘ullangan olim M.Mirtojiyevning tadqiqoqtalaridan ham o‘rin olgan.

“Eski turkiy adabiy til leksikasi” qo‘llanmasida, shuningdek, *tushmoq* fe’li ham polisemantik munosabatga kirishgan so‘z sifatida qayd etiladi. Uning asosiy,

⁷⁹ Abdushukurov B. Eski turkiy adabiy til leksikasi. T.: Tafakkur bo’stoni, 2015. B. 103.

denotativ ma'nosidan tashqari quyidagi ma'nolari ham asarda qo'llangani qayd etiladi:

1. *Pasayib, biror darajaga yetmoq*
2. *Mustahkamlangan, qotirilgan, tutib turilgan yeridan uzilib, o'z og'irligi bilan pastga ketmoq*
3. *Umuman biror yerga borib qo'nmoq*
4. *Biror narsa ichiga kirmoq*
5. *Havolab uchib borib o'z og'irligi bilan biror yerga yetmoq*
6. *Safar chog'I biror yerda dam olish uchun to'xtamoq*
7. *Ma'lum bir yo'nalishda tarqalib, muayyan nuqtaga yoyilmoq*
8. *Ilinmoq*
9. *Paydo bo'lmoq, bosmoq*
10. *Biror xonadonga uzatilmoq, kelin bo'lmoq*
11. *Ega bolmoq*
12. *Biror xatti-harakatga kirishmoq*
13. *Ot-ulovdan yerga, pastga tushmoq*
14. *Qandaydir sabab va maqsad bilan birovning oldiga bormoq*
15. *Mehmoq bo'lmoq*
16. *Boqmoq, nazar somoq*
17. *Nuramoq, ag'namoq*
18. *Duchor bo'lmoq, sodir bolmoq*
19. *Yuztuban yotmoq*
20. *Uzoqlashmoq*
21. *Balandlikdan pastlikka, jarlikka bexosdan tushib ketmoq*
22. *Biror mansab dan bo'shamoq, hurmat-e'tibordan chetda qolmoq*
23. *Fitna qilmoq.*
24. *Boshiga qayg'u, musibat tushmoq*
25. *Xabar topmoq*
26. *Tarqalmoq*
27. *Homilasidan ayrilmoq*

28. *Ovoza bo'lmoq*
29. *Sevmoq*
30. *Yiqilmoq, cho'kkalamoq*
31. *Yonmoq, yonib, kuyib tushmoq*
32. *Boshiga tushmoq*
33. *Yodiga kelmoq*
34. *Qo'lga tushm oq, giriftor b'lmoq*
35. *Balog'a qolmoq*

Tushmoq fe'lining yuqorida sanab o'tilgan hosila ma'nolari ba'zan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarkibida ba'zan iboralar tarkibida kelib shu ma'nolardan birini anglatgan. Masalan, sevmoq ma'nosda berilgan ko'ngli tushmoq iborasi hozir ham tilimizda faol qo'llaniladi. Shuningdek, bu qo'llanmada *ko'tarmoq* fe'lining 20 ta hosila ma'nosi sanab o'tiladai va ularning har biriga misollar berilgan.

Qisasi Rabg'uziy asari o'z davrining, ya'ni XIV va undan avvalgi asrlarning leksik, sintaktik xususiyatlaridan xabar beruvchi yirik manba hisoblanadi. Unda yuqorida tahlil qilgan fe'llardan tashqari yana *kechmoq*, *yozilmoq*, *saqlamoq*, *kesmoq* kabi fe'llar ham polisemantik munosabatga kirishgan va ularning har biri turli ma'nolarda qo'llanilib, muallif bermoqchi bo'lgan g'oyani ifodalashga, shuningdek, asarning badiiy ta'sirchanligini oshirishga shu bilan birga Rabg'uziy davri tili haqida ma'lumot berishga xizmat qilgan. Polisemantik so'zlar fe'llarda uchrashining asosiy sabablaridan biri esa turkiy tillarda, xususan eski o'zbek tilida ham gapning asosini fe'l so'z turkumi tashkil qilgan, ya'ni so'z turkumlari doirasida fe'lning mavqeい balandroq bo'lgan. Shu sababli ham fe'l so'z turkumiga oid leksemalar ko'p ma'nolilikni hosil qilgan.

II BOB BO‘YICHA XULOSA

XIV asr yozma yodgorligi sanalgan “Qisasi Rabg‘uziy” asarini leksik jihatdan tahlil qilish, unda qo‘llangan polisemantik so‘zlarni aniqlash hamda ma’no jihatdan o‘rganish asnosida quyidagi xulosalarga kelindi:

-“Qisasi Rabg‘uziy” asari leksik jihatdan juda xilma-xil bo‘lib, unda o‘z qatlam bilan birgalikda o‘zlashgan qatlam leksikasi ham keng o‘rin olgan. Xususan, asarning g‘oyaviy jihat e’tiborga olingan holda unda arabiylar leksika faol qo‘llangan. Shu bilan birga asarda bir va ko‘p ma’noli so‘zlar, omonim, sinonim, antonimlardan ham keng foydalilanilgan.

-asarda monosemantik so‘zlar bilan bir qatorda ko‘p ma’noli so‘zlar ham juda faol qo‘llangan.

-polisemantik so‘zlar bu- bir so‘zning turli ma’nolarda qo‘llanilishi, ya’ni bir leksemaning turli semalarining faollashishi natijasida yangi ma’noni berishidir. Polisemiyadagi o‘ziga xos xususiyat shuki, unda yangi so‘z hosil bo‘lmaydi, balki bir so‘zning turli o‘rinlarda, turli kontekstlarda qo‘llanilishi natijasida bosh so‘zga aloqador, undan o‘sib chiqqan yana bir ma’no faollashadi. Polisemija deyarli har bir tilda uchraydi. Shu bilan birga, til taraqqiyotining barcha davrlarida ko‘p ma’noli so‘zlardan foydalilaniladi.

-“Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham bir ma’noli so‘zlar qo‘llanilishi barobarida ko‘p ma’noga ega polisemantik leksikadan ham unumli foydalilanilgan. Adib polisemantik so‘zlarni qo‘llashidan asosiy maqsad, ular o‘sha davr dabiy tilida qo‘llanilgan, til egalari ayni shu so‘zlarni polisematik so‘z sifatida qabul qilganligidir. Chunki har qanday badiiy asar o‘z davrining til xususiyatlaridan kelib chiqib, unga uyg‘un holda yaratiladi.

-asarda polisemiya hodisasiga uchragan so‘z turkumlari orasida ot va fe’l soz’ turkumiga oid so‘zlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Chunki ot va fe’llar har qaysi til lug‘at boyligining asosini tashkil qiladi. Otlar shu tildagi mavjud kishilar va narsalarning nomini bildirsa, fe’llar ish-harakat, holatni ifodalashi bilan alohida ahamiyatga egadir.

-“Qisasi Rabg‘uziy” asarida ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarning ayrimlari polisemantik munosabatga kirishgan bo‘lib, ular asosan bir so‘z turkumi doirasida ko‘pma’nolilik hosil qilgan.

-ot so‘z turkumidagi polisemantik so‘zlardagi asosiy xususiyatlar shuki, ular ikki va undan ortiq ma’nolarda qo‘llangan. Barcha polisemantik so‘zlar bosh, dominant ma’noga bog‘liq holda kontekstda turli ma’nolarni ifodalagan. Ularning aksariyati hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham polisemantik so‘zlar hisoblanadi.

-fe’l so‘z turkumiga oid polisemantik so‘zlar esa asrda salmoqli o‘ringa ega.

-fe’l so‘z turkumiga mansub ko‘p ma’noli so‘zlarda ham bir umumiylar ma’noning turli semalari faollashib, boshqa kontekstda turli ma’nolarni ifodalab kelgan.

-polisemantik fe’llarning aksariyati tarixiy taraqqiyot natijasida bugungi tilimizda qo‘llanilmay qolgan, lekin ba’zi bir fe’llar hozir ham aynan shu ma’noda qo‘llanilmoqda.

Umuman, olganda “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ot va fe’l so‘z turkumidagi leksemalar faqat bir ma’noda emas, balki ko‘p ma’noda qo‘llanilib, asarning badiiy qimmatini oshirishga, o‘z davrining til xususiyatlaridan xabar berishga hamda XIV asrda qo‘llangan faol leksika haqida ma’lumot berishga xizmat qilgan.

III Bob. “Qisasi Rabg‘uziy”da qo‘llangan ko‘p ma’noli so‘zlarning eski turkiy til va bugungi o‘zbek tiliga munosabati

3.1“Qisasi Rabg‘uziy” da keltirilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning eski turkiy til nuqtai nazaridan tahlili

“Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi polisemantik so‘zlarning eski turkiy tilga munosabatini tahlil qilishdan avval o‘zbek tilining davrlashtirish masalasiga, eski turkiy til qaysi asrlarni o‘z ichga olishiga bir nazar tashlaymiz.

O‘zbek tili - Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi. Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.

O‘zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

Miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo‘lgan davr. Bu davrdagi til fanda qadimgi turkiy til deb yuritiladi. Qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalari, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari (VI—VII asrlar) shu tilda yaratilgan.

XI—XIV asrlarda amalda bo‘lgan til eski turkiy til deb ataladi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu-lug‘atit-turk” (“Turkiy tillari devoni”), Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“ („Saodatga yo‘llovchi bilim“), Ahmad Yughnakiyning «Hibatul haqoyiq» („Haqiqatlar armug‘oni“), Xorazmiyning „Muhabbatnama“, Rabguziyning „Qissai Rabg‘uziy“ asarlari shu tilda yaratilgan.

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo‘llangan til eski o‘zbek adabiy tili deb nomlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha ishlatib kelayotgan til hozirgi o‘zbek adabiy tili deb ataladi. „Turkiston viloyati gazeti“ nashr qilina boshlagan vaqtidan (1870-yildan) e’tiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o‘zbek adabiy tilining namunalari hisoblanadi.

O‘zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIII asrda eski o‘zbek adabiy tili shakllanib bo‘ldi.

Eski o‘zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog‘liqdir. U eski o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi „Muhokamat-ul-lug‘atayn“ nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o‘zbek tilining boshqa tillardan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi.⁸⁰

Demak, davrlashtirishdan ma’lum bo‘ladiki, XI—XIV asrlarda amalda bo‘lgan til **eski turkiy til** deb ataladi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining o‘zi ham aynan shu davrda yaratilgan. Yana bu davrning boshida aynan tilshunoslik sohasiga bag‘ishlangan “Devon-u lug‘otit turk” asari ham yaratilgan.

“Devonu lug‘otit turk” arab tilida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar (harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalanimagan. Bunda, albatta, muallif ancha qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo) ishoralari bilan turkiy tovushlarni berib bo‘lmash edi. Turkiy tildagi cho‘ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun Mahmud Koshg‘ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo‘llaydi yoki so‘z boshidagi cho‘ziqlikni ikki alif bilan ko‘rsatadi yoki 2 xil talaffuz qilinadigan so‘zlarga 2 xil ishora qo‘yadi: *azuqluq, eritmak* so‘zlaridagi 3 va R harflari ustiga ham kasra, ham damma ishorasini qo‘ygan, demak, bu so‘zlar o‘sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: azmqluq — azuqluq, eritmak — erutmak kabi. Arabcha harf bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turkiy talaffuzni “Devonu lug‘otit turk”da izoxlab, ta’riflab o‘tgan. “Devon-u lug‘otit turk”da, avvalo, otlar, so‘ng fe’llar izohlanadi. So‘zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan.

Til tarixini o‘rganish, uning eski holidan voqif bo‘lish qadimgi qo‘lyozmlarani qiyosiy jihatdan tadqiq etish ular orasidagi yaqinlik va farqlarni

⁸⁰ <http://wikipedia.uz>

aniqlash yordamida olib boriladi. Asar tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy adabiy tilning ilk manbalari tili bilan munosabati haqida shuni aytish joizki, mazkur obidalar turli davr va sharoitlarda yaratilgan. Shu bois tilda o‘zgarishlar yuz bergani tabiiy. Chunki bu vaqt davomida til o‘zining taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq fonetik, leksik, grammatik, morfologik, sintaktik jihatdan o‘zgarishlarga uchragan, takomillashgan, boyigan.⁸¹

Quyida “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi polisemantik leksemalarni ayna shu lug‘atdagi ma’nolari bilan solishtirishga harakat qilamiz. Turkiy tillar devoni deya nom olgan “DLT” asari eski turkiy tilning eng muhim yozma yodgorligi hisoblanadi. Bu asar o‘sha davrning lug‘at tarkibi, madaniyatidan xabardor etuvchi eng xolis manba sifatida ham ahamiyatlidir. Turkiycha so‘zlarning arabcha izohi berilgan bu lug‘atda muallif o‘zi kezib chiqqan 24 ga yaqin turkiy qabilalar tilidagi ijtimoiy-maishiy, siyosiy, umuman butun leksik tarkibni asarda berishga harakat qilgan. Asarning qimmati ham shunda. Bu asarda izohlangan so‘zlarning aksariyati bugungi kunimizda ham o‘zgarishsiz faol qo‘llaniladi. Bu asardan uch yuz yil o‘tib yaratilgan “Qisasi Rabg‘uziy” dagi polisemantik leksikani unda mavjud variantlari bilan qiylaymiz va zarur xulosalar chiqaramiz.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida polisemantik so‘z sifatida tahlil qilaganimiz og‘moq fe’lining “DLT” asarida berilgan izohi bilan tanishamiz:

ag‘di –chiqdi, ko‘tarildi. *Ol taqg‘a ag‘di- u toqqa ko‘tarildi.* Boshqa narsalarga ham bu so‘z qo‘llaniladi. Ag‘ar, ag‘maq.

Bulut ag‘di- bulut chiqdi. Bulut paydo bo‘ldi. Aning juzi ag‘di- uning yuzi o‘zgardi.⁸²

“DLT” asarida asosan ot va fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlar izohlangan bo‘lib, fe’llar zamon, mayl, nisbat qo‘sishchalarini olgan holda, ya’ni kesimlik shaklida berilgan. Shuningdek, ular arab tili grammatikasi bo‘yicha tartiblangan.

⁸¹ Abdushukurov B. Eski turkiy adabiy til leksikasi. T.: Tafakkur bo’stoni, 2015. 88 b.

⁸² Koshg’ariy Mahmud. Devon-u lug’otit turk. B. 88

Lug‘atda *og‘moq* fe’li “Qisasi Rabg‘uziy” asarida polisemantik so‘z sifatida baholaganimiz *og‘moq* fe’li bilan bir ma’noni anglatyapti. Faqat unda fonetik o‘zgarish sodir bo‘lgan. O tovushi turkiy tillar uchun xos tovush hisoblanmaydi. Bu tovush turkiy tillarga, xususan, o‘zbek tiliga fors tili ta’sirida kirib kelgan. Shu sababli hozir ham o‘zbek tilidan boshqa turkiy tillar oilasiga mansub tillarda “o” tovushi deyarli qo‘llanilmaydi. “Qisasi Rabg‘uziy” asari yaratilgan davrda esa fors-tojik tilining unsurlari tilimizga kirib kelishga ulgurgan edi. Shu sababli turkiy tilga mansub so‘zlarda Koshg‘ariy davridagi qo‘llanilish bilan farq mavjud bo‘lgan. *Og‘moq* fe’lining “DLT”da berilgan izohi va misollardan xulosa qiladigan bo‘lsak, bu fe’l XI asrda ham xuddi “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan ma’noni ifodalagan. Misollarga diqqat qilamiz:

Ol taqg‘a ag‘di- u toqqa ko‘tarildi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham pastdan yuqoriga qarab ko‘tarilish ma’nosini bildirgan. Shuningdek, bu fe’l boshqa narsalarga nisbatan ham qo‘llaniladi deya, bulut ag‘di- bulut chiqdi misoli keltiriladi. Bu esa ag‘di fe’li ko‘pma’noli deganidir. Demak, har ikki davrda ham bu so‘z narsa-predmetning yoki shaxsning pastdan yuqoriga qarab harakati ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Uning qolgan ma’nolari keyingi davrlar uchun xosdir.

Asarda, ya’ni DLT da berilgan inmoq fe’li asosan pastga tushmoq ma’nosini bildirgan:

*Indi-pastga tushdi, ol tag‘da quiz indi- u tog‘dan pastga tushdi*⁸³.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida esa bu so‘z tegmoq, qo‘nmoq ma’nolarini bildirgan. DLTda esa bu leksemaning bиргина ma’nosи berilgan. U DLT da polisemantik emas, balki monosemantik so‘z sifatida izohlangan.

Turur leksemasi esa biroz bahstalab izoh bilan berilgan. Bu haqda DLTni nashrga tayyorlovchi muallif shunday deydi:

“Mahmud Qoshg‘ariyning buz so‘z izohi haqidagi fikrida biroz aniqsizlik bor. Unda bir tarafdan o‘tgan zamon va masdar formasi bo‘lmagan kelasi zamon

⁸³ Koshg‘ariy Mahmud. Devon-u lug‘otit turk. T. Fan, 1990. B. 90

fe’li deyilsa, bir tomondan sila deb uqtirilgan. Lekin silaga tamomlovchi deya izoh berilgan. Haqiqatdan ham tekstda sila tamomlovchi ma’nosidadir. Shuning uchun buni arabcha fe’li jomidga qiyos qilish qulaysizdir”⁸⁴.

Bu so‘zning lug‘atda izohiga diqqat qilamiz:

“*Turur* –o‘tgan zamon formasi va masdar shakli yo‘q, kelajak zamon fe’lidir. U sila ma’nisidadir⁸⁵ ol tash turur-u toshdir ol qush turur- u qushdir

Bu sila tamomlovchidir. Arabcha yarashadi degan so‘zga to‘g‘ri keladi. Uning ham o‘tgan zamon va masdar formasi yo‘qdir.”

Demak, bundan ma’lum bo‘ladiki, sila-bu hozirgi tildagi bog‘lama ma’nosida. Qoshg‘ariy turur fe’lini kelajak zamon fe’li, ya’ni kelasi zamonni ifodalaydi deyish bilan birga uni otlarni kesim sifatida shakllantiruvchi bog‘lama sifatida ham baholaydi va arabcha so‘zga qiyoslaydi. Shunigdek, muallif uning sila, ya’ni bog‘lama sifatida qo’llanilishiga ikkita misol keltiradi. Ammo uning kelasi zamonni anglatishiga misol bermaydi asarni nashrga tayyorlovchisining e’tirozi ham shundan, bizningcha. Bu so‘z lug‘atda faqat shu ma’noni berishi aytildi.

Demak, u XI asrda asosan, -dir ma’nosini ifodalash uchun ishlatilgan. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida esa so‘zning faqat *-dir* ma’nosida emas, balki *bo ‘lmoq, qilmoq, sanalmoq, hisoblanmoq* kabi ko‘makchi fe’llar o‘rnida ham ishlatilganini kuzatamiz. Turur leksemasi shu sabali ham fe’llar ichida o‘zining hosila ma’nolari ko‘pligi va asarda turli o‘rinlarda har xil ma’noilarini, yanayam aniqrog‘i hosila ma’nolarni anglatib kelganini ko‘ramiz. Har ikki asardagi turur so‘zining ma’nolarini, ya’ni asarlarda ular qaysi leksemalarini faol namoyon qilganini jadval asosida tahlil qilishga urinamiz.

Qiyoslaymiz:

TURUR	
“DLT” da	“Qisasi Rabg‘uziy”da
<i>ol tash turur(-dir)</i>	<i>Yinjudin turur(-dir)</i>

⁸⁴ Koshg‘ariy Mahmud. Devon-u lug’otit turk. T.; Fan. B. 80

⁸⁵ Koshg‘ariy Mahmud. Devon-u lug’otit turk. T.; Fan. 2-jild.B. 13

<i>ol qush turur(-dir)</i>	<i>mani fusus turur(qilmoq)</i>
	<i>urug‘idin turur(-dir, hisoblanmoq)</i>

Shuningdek, DLTda turmoq fe’lining turdi shakli ham beriladi.

1. *Turdi-turdi er juqaru turdi- odam tikka turdi, tikkaydi, turur, turmaq.*

2. *Turdi-yog‘di, paydo bo ‘ldi. Tuman turdi- tuman paydo bo ‘ldi*⁸⁶

Kesmoq fe’lining DLT asarida faqat bir ma’noni ifodalshiga misol berilgan.

*Kesdi-ol yig‘ach kesdi- u daraxt kesdi*⁸⁷

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida esa uning faqat bir ma’noda emas, balki ko‘chma ma’nosи ham mavjudligini ikkinchi bobda tahlil qilgandik. Demak, bu fe’lning boshqa ko‘chma ma’nolari ham keyinchalik tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan bo‘ladi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida polisemantik so‘z sifatida o‘zi anglatadigan bosh ma’nodan tashqari yana vaqtga nisbatan o‘tmoq ma’nosini bildiradigan “kechmoq” fe’li ham mavjudligini asardan olingan misollar asosida tahlilga tortgandik.

“Devon-u lug‘tit turk” asarida esa uning quyidagi ma’nolari berilgan:

1. *Kechti-kechdi, o‘tdi-aj, kun kechti-oy, kun o‘tdi*

2. *Kechti-kechti er suw kechdi- kishi suv kechdi*

3. *Kechti –kechti, o‘tdi, o‘ldi. Odam kechti-odam o‘ldi*⁸⁸

Demak, bu lug‘atda hozirgi o‘zbek tilidag kechmoq fe’lining ma’nolari 3 xil shaklada ifodalanmoqda.

Birinchi ma’nosи vaqt qismlariga nisbatan qo‘llanilib, o‘tmoq ma’nosini berishda foydalanilgan:

4. *Kechti-kechdi, o‘tdi-aj, kun kechti-oy, kun o‘tdi.*

Berilgan bu misolda kechmoq fe’lining o‘tmoq ma’nosini berayotganini ko‘ramiz. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham uning xuddi shu mazmunni ifodalsh uchun berilganini misollar asosida tahlil qilgandik. Shuningdek, “Devon-u lug‘otit turk” asarida bu fe’lning yana boshqa ma’nolarni ifodalaganini ham ko‘ramiz.

⁸⁶ Koshg’ariy Mahmud. Devon-u lug‘otit turk. B.12.

⁸⁷ Koshg’ariy Mahmud. Devon-u lug‘otit turk.. 2-jild B.19.

⁸⁸ Koshg’ariy Mahmud. Devon-u lug‘otit turk. 2-jild B.11.

Suv kechmoq, ya’ni suvdan o’tmoq; odam kechdi, ya’ni odam o’ldi kabi misollarda ham o’tmoq ma’nosini ifodalash uchun shu leksema qo’llanilgan. “Devon-u lug‘otit turk” asarida kechmoq fe’lining har uchala ma’nosи ham alohida-alohida berilgan. Ya’ni ular muallif nazarida omonim so‘z sifatida baholangan. Ammo ularning har biridagi ma’no va ifoda semalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, umumiy bir ma’no ostida birlashganini ko‘rish mumkin. Har uchala so‘zda ham ‘bir joydan ikkinchi bir joyga yoki bir vaqtidan boshqa bir joyga o’tmoq” semasi asosida yangi ma’no, aniqrog‘i, hosila ma’no hosil qilingan.

Demak, kechmoq fe’li eski turkiy tilning ilk davrida ham, uning keyingi tarraqqiyot bosqichida ham ko‘pma’noli, ya’ni polisemantik leksema sifatida faol qo’llangan. Buni har ikkala asardan olingan misollar asosida kuzatdik va shunday xulosaga keldik: ularning ma’no semalarini bosh asosiy sema birlashtirib turgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu fe’lning qay holatda saqlanib qolganligini bobimizning keying faslida tahlilga tortishga harakat qilamiz.

Bosh so‘zi devonu lug‘otit turk asarida faqat bir ma’noda qo’llaniladi. Bu so‘zga lug‘atda kishining tana a’zosi deya izoh berilgan. Shu sababli ham XI asrda, ya’ni “Devon-u lug‘otit turk” asari yaratilgan paytda bosh leksemasi faqat bir ma’noda qo’llangan, unda polisemiya mavjud bo‘lmagan deya ayta olamiz.

Shuningdek, “Devon-u lug‘otit turk” asarida uchragan ot so‘z turkumiga mansub so‘zlardan aksariyatini “Qisasi Rabg‘uziy” asariga qiyoslaganimizda farqli hollarni kuzatishimiz mumkin. Xususan, yuqorida ko‘rganimiz bosh so‘zi “Qisasi Rabg‘uziy” asarida polisemantik so‘z sifatida bosh, denotativ ma’nosidan tashqari yana bir qancha hosila ma’nolarga ega ekanligini ko‘rgandik. Ammo “Devon”da faqat bosh so‘zining “odam boshi”, ya’ni o‘z ma’nosini bildirib kelgan. Uning boshqa hosila ma’nolariga izoh berilmagan.

Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, uning hosila ma’nolari keying davrlarning, til taraqqiyotining mahsulidir.

Umuman, har ikki asardagi polisemantik so‘zlar bir-biridan farq qilgani holda ularda umumiy jihatlar ham mavjud. Bu jihatlar asosan fe’l so‘z turkumiga mansub so‘zlarda namoyon bo‘lgan.

3.2 “Qisasi Rabg‘uziy”da berilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan tahlili.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari yaratilganiga salkam 7 asr bo‘lgan esa-da uning o‘qilishida, tushunilishida unchalik murakkablik tug‘ilmaydi. Sababi muallif asar tilini iloji boricha adabiy til me’yorlariga amal qilgan va xalq tushunadigan so‘zlardan foydalangan holda yozgan. Asardagi polisemantik so‘zlarni bugungi adabiy tilga qiyoslash asar tilining hozirgi tilimizga qanchalik yaqinligini bilish imkonini beradi. Shu maqsadda “Qisasi Rabg‘uziy”dagi polisemantik leksemalarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini ushbu faslda tahlilga tortamiz.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida uchragan ot so‘z turkumiga mansub leksik birliklarning bugungi adabiy tilimizga ta’siri, munosabatini tahlil qilish uchun ularni izohli lug‘atdagi ma’nolari va jonli so‘zlashuv nutqida uchraydigan shakllari bilan qiyoslaymiz. Xususan, *yo’l* leksemasi asarda polisemantik munosabatga kirishganini ko‘rdik. Bu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida bosh ma’nosidan tashqari quyidagi ma’nolarda qo’llaniladi:

1. Biror narsaning yo‘nalish, kelish-ketish oqimi, yo‘nalishi. *Hayot o‘z yo‘lidan borar, bahor bolalarga o‘z quvonchi, o‘z shodliklarini saxiylik bilan taqdim etgan edi.*

2. Faoliyatda amal tarzi, qilinadigan, tutiladigan ish-amal. *Hozir senlarga ikki yo‘l: o‘g‘il qizingni sotib bo‘lsa ham o‘ttiz ikki tangani Azizbek xazinasiga to‘lash yoki es borida etakni yopib, Azizbekni oradan ko‘tarish.... A.Qodiriy. O‘tkan kunlar.*

3. Kuy, qo‘sinq va sh.k.da o‘ziga xos usul. *Orziy-u armonimni she’riy yo‘lda qaytadan so‘zlab turibman, balki yoshlik bo‘lib bahona.* A.Oripov.

4. Imkon chorasi. *Hech bo‘lmasa jonni saqla sen. Bir yo‘l topib qochmoq kerak bu eldan.* H.Olimjon.

5. Ko‘makchi vazifasida sabab, maqsad ma’nolarini bildiradi: borasida, uchun. *Kimiki xalq yo‘lida, xalq g‘amida ter to‘ksa, qo‘li hamma yerda baland bo‘lsin.* M.Ismoilov.

Bu ma'nolar, albatta yo'l so'zining denotativ ma'nosidan tashqari, ya'ni ko'chma ma'nolaridir. Berilgan misollar va izohlardan ma'lum bo'lib turibdiki, yo'l leksemasi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham polisemantiklik xususiyatini saqlab qolgan. Faqat masalaning ikkinchi tomoni bor. Xo'p, yo'l so'zi bugun polisemantik so'z hisoblanar ekan, uning ma'nolari xuddi "Qisasi Rabg'uziy" asarida qo'llangan leksemalar bilan bir xilmi?

Til ijtimoiy hodisa ekanligi va u jamiyat taraqqiyoti davomida insoniyat bilan bir qatorda turli o'zgarishlarga uchrashi hech kimga sir emas. Shu ma'noda polisemantik so'zlarda ham o'zgarishlar bo'lishi, ulardagi ma'lum bir ma'no yo'qolib, boshqasi ustunlik qilishi yoki polisemantik so'zlar omonimlik hosil qilishi kabi holatlar yuz beradi. Shu sababdan ham XIV asr yodgorligidagi leksik birliklar bilan bugungilarining o'rtasida farq bo'lishi tabiiy holdir. Tilning lug'at sathi boshqalariga qaraganda eng tez va ko'p o'zgarishlarga uchraydi. Chunki jamiyat hayotidagi har qanday o'zgarish avvalo so'zda o'z aksini topadi.

Shu sababli ham asarda ko'p ma'noli bo'lib kelgan yo'l leksemasi bugungi kundagi barcha ma'nolariga to'la mos tushmasligi aniq.

Asarda yo'l so'zining *marta*, *sabab* kabi sememalari mavjudligi va ular turli kontekstlarda qo'llanilib, alohida ma'no anglatganini birinchi bobda ko'rgandik. Ammo bu ma'nolar hozirgi o'zbek adabiy tili uchun xos emas. Tarixiy taraqqiyot davomida yo'l leksemasi tarkibidagi boshqa semalar ichki va tashqi omillar ta'sirida yo'qolib borgan. Shuningdek, yo'l leksemasining o'sha davrda qo'llanilgan bosh, ya'ni denotativ ma'nosini hozir ham ayni shu ma'noda qo'llaniladi.

Asarda yo'l so'zining "chora" ma'nosida ham qo'llanganini tahlil qilgandik. O'zbek tilining izohli lug'ati va so'zlashuv nutqini kuzatar ekanmiz, yo'l leksemasining ushbu ma'noda bugun ham faol iste'foda etilayotganiga guvoh bo'lamiz.

Izohli lug'atda xuddi shu ma'noda qo'llanilishiga quyidagi misol keltiriladi:

Imkon chorasi. *Hech bo'lmasa jonni saqla sen. Bir yo'l topib qochmoq kerak bu eldan.* H.Olimjon.⁸⁹

Asardagi *kendu bir yo'l ko'rguzgay* misolidagi “bir yo‘l” birikmasida ham “chora” semasi mavjud. *Bir yo'l topib qochmoq* birikmasida ham xuddi shu ma’noda qo‘llanilayotganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, oddiy so‘zlashuv uslubida ham yo‘l so‘zi *imkon*, *chora* ma’nolarida keng qo‘llaniladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, yo‘l so‘zining ba’zi bir ma’nolari asar yaratilgan davr, ya’ni XIV asr uchun xos bo‘lsa, ba’zi bir ma’nolari bugun ham aynan qo‘llaniladi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida polisemantik so‘z sifatida faol bo‘lgan va ko‘p uchragan leksema sifatida “*bosh*” so‘zini qayd etgan edik. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bosh so‘zining 20 dan ortiq ma’noda kelishi va ular omonim emas, balki polisemantik so‘zlar ekanligi ishimizning ikkinchi bobida aytib o‘tilgan edi. Darhaqiqat, bosh leksemasi bugun ham ko‘p ma’nolilik bo‘yicha ot so‘z turkumiga mansub so‘zlar ichida o‘z salmog‘iga ega. Asli turkiy, ya’ni o‘zbekcha so‘z hisoblangan bosh leksemasi bugun tirik mavjudotning yuqori qismi, har qanday narsa-predmetning yuqori qismi, biror jamoaning boshlig‘i kabi asosiy ma’nolardan tashqari yana bir qancha sememalarga ajraladi. Ammo ularning hammasini bir sema birlashtirib turadi. Shu o‘rinda bugun faol iste’molda bo‘lgan bosh leksemasining ma’nolarini asar tiliga solishtiradigan bo‘lsak, bu leksema qo‘llanilishida ham deyarli katta farq ko‘zga tashlanmaydi. Xususan, asarda bosh so‘zi asosan inson tanasining bir qismi va ko‘chma ma’noda tik, baland turgan narsaning eng yuqori qismi ma’nosida kelganinga guvoh bo‘lgandik. Hozirgi o‘zbek tilida ham bosh leksemasi shu ma’nolarda qo‘llaniladi.

Ulardan tepada,

Tog‘lar boshida

*Qor bosgan qoyalar oqarib turar.*⁹⁰

⁸⁹ O‘zbek tilining izohli lug’ati. T., “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006.

⁹⁰ <http://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-sherlar.html>

*Senga allalar aytaman,
Alla, qo 'zim, alla.
Soyalaringda yotaman,
Alla, bolam, alla.
Qarchig 'ay qushning bolasiday,
Daraxt boshi uyasiday⁹¹.*

Bosh so‘zining sifat ma’nosida kelishi ham hozirgi adabiy til uchun xos. Asarda bosh leksemasining sifat so‘z turkumidagi so‘z vazifasida kelganini deyarli uchratmadik. Ammo hozirgi o‘zbek tilida bu so‘z “birinchi”, “asosiy” ma’nosida faol qo‘llaniladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida uning ko‘chma ma’nodagi, ya’ni sifat ko‘rinishida uchrashiga quyidagi misollar keltirilgan.

1. Lavozim, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi. *Bosh vrach, bosh agronom.*

Berilgan misollarda bosh so‘zi grammatik jihatdan qaysi so‘rog‘iga javob bo‘lib, sifat bajargan vazifani bajarayotgan bo‘lsa-da, mantiqan unda bosh so‘zining dominant mazmuni mavjud. Bu xususiyatni boshqa misollarda ham kuzatish mumkin.

2. Ulkan, katta, asosiy. *Ozgina yurgach, “Bog ‘izog ‘on”ning bosh arki oldidan chiqdilar.* Oybek, Navoiy.
3. Sifat. Eng muhim, asosiy, yetakchi. *Bosh masala, bosh sabab.*
4. Sifat. Eng oldingi, birinchi. *Bosh bola, bosh kelin.*

Berilgan misollarning barchasida ham bosh so‘zining “asosiy” semasi asosida yangi ma’no hosil qilingan. Ammo bu ma’nolarni biz “Qisasi Rabg‘uziy” asarida uchratmaymiz. Bizningcha, bosh leksemasining bu ma’nolari til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin.

⁹¹ <http://ertak.uz/songs/655>

Asarda uchragan va polisemantik so‘z sifatida qatnashgan zamon leksemasi ham bugungi adabiy tilimizda uchraydi. Zamon so‘zi ma’lum bir o‘tgan davr, kimningdir hukmronlik qilgan payti ma’nolari avval ham mavjud edi, hozir ham qo‘llaniladi. Shuningdek, asarda uni bir oz vaqt ma’nosida “zamon bergin”, ya’ni vaqt bergin ma’nosida qo‘llanganini tahlil qilgandik. Zamon so‘zining izohli lug‘atdagi ma’nolarini tahlil qilar ekanmiz, uni adabiy tilda bugun u ma’noda qo‘llanilmasligini ko‘ramiz. Ammo o‘guz lahjasiga mansub shevalarda, xususan, Xorazmning ba’zi tumanlari shevasida zamon so‘zi xuddi Rabg‘uziy qo‘llagan ma’noda uchrashini kuzatdik. “Bir zamandan keyin galling”, ya’ni bir oz vaqtadan keyin keling tarzida shevada mavjud bo‘lgan bu so‘z asarda ham xuddi shu ma’noda qo‘llangan: *zamon bergil*, ya’ni bir oz vaqt *bergil* kabi. Zamon so‘zining bu ma’nosini bugun nega aynan Xorazm shevalarida uchrashini quyidagicha izohlash mumkin:

Asar muallifi Nosiruddin Rabg‘uziy qadim Xorazmning farzandi bo‘lgan va bevosita asar yaratayotgan payt adabiy til bilan birgalikda sheva elementlaridan ham unumli foydalangan. Shu sababli ham asarda uchrovchi ba’zi so‘zlar O‘zbekistonning boshqa hududlarida emas, aynan Xorazm shevasida mavjud.

Asarda uchrovchi ot so‘z turkumiga mansub leksemalarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini qiyosiy tahlil qilish asnosida shunday xulosa chiqarish mumkin: asar yaratilgan davrda polisemantiklik hosil qilgan leksemalar bugun ham faqat bir ma’noli emas, shuningdek, ularning aksariyatida ma’nolar soni yana-da ortgan bo‘lib, ba’zilarida esa bu jarayon aksincha kechgan.

“Qisasi Rabg‘uziy”da uchragan ot so‘z turkumiga mansub polisemantik so‘zlarning hozirgi adabiy tilga munosabatini tahlil qilish asnosida ulardagi o‘zgarishlarni o‘rgandik. Ularni har ikki davrdagi manbalarda qo‘llanilishi yuzasidan xulosalarni chiqardik. Uchinchi bobning birinchi bobida asar tilidagi ko‘p ma’noli so‘zlarni eski turkiy til yodnomasi “Devon-u lug‘otit turk” asaridagi polisemantik leksemalar bilan qiyos qilganimizda umumiyligi va xususiy hollarni ajratgandik. Hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan solishtirilgandan so‘ng esa quyidagicha xulosa qilish mumkin:

“Qisasi Rabg‘uziy” asari eski turkiy tildan ko‘ra hozirgi o‘zbek adabiy tiliga yaqinroq ekan. Chunki undagi polisemantik so‘zlar eski turkiy tildan ko‘ra hozirgi so‘zlarimizning aksariyati bilan bir xil, yaqinroq ekanligi kuzatildi.

Quyida asarda uchragan polisemantik fe’llarning hozirgi adabiy tilga munosabatini tahlilga tortamiz.

Fe’l	Ma’nosi	Misol
Og‘moq	<i>ko ‘tarilmoq</i>	<i>tutun og‘di</i>
	<i>Chiqarmoq</i>	<i>ko ‘kka og‘durdi</i>
Turur	<i>dir bog ‘lamasi</i>	<i>Yinjudin turur</i>
	<i>qilmoq</i>	<i>mani fusus turur</i>
	<i>bo ‘lmoq</i>	<i>urug ‘idin turur</i>
Inmoq	<i>kelmoq</i>	<i>Dunyog ‘a ingan</i>
	<i>tegmoq</i>	<i>Egniga indi, ko ‘kdin o ‘t indi</i>
Izmoq	<i>Yoymoq</i>	<i>Qamug ‘in dunyoga izdi</i>
	<i>jo ‘natmoq, yubormoq</i>	<i>Rum viloyating ‘a izdi</i>
	<i>Tashlamoq</i>	<i>Yusufni qarindoshlari belin bog ‘lab quduqg ‘a izdilar</i>
Kesmoq	<i>Uzmoq</i>	<i>umid kesdi</i>
Kechmoq	<i>o ‘tmoq</i>	<i>o ‘tuz yil kechdi</i>
Tikmoq	<i>Ekmoq</i>	<i>yig ‘och tikdi</i>
Saqlamoq	<i>to ‘xtatmoq</i>	<i>yo ‘l saqlab</i>

Asarda fe’l so‘z turkumi doirasida eng ko‘p polisemantiklik hosil qilgan so‘z bu og‘moq leksemasidir. Og‘moq leksemasining hozir amalda bo‘lgan o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ma’nolari quyidagicha berilgan:

Og‘moq

1. Biror tomonga yotib, qiya holat olmoq, qiyshaymoq, engashmoq, yonboshlamoq. ***Kema o‘ng tomonga og‘di. Devor og‘ib qoldi. Ortiq so‘zlay***

olmadi, boshi bir tomonga OG‘IB tushdi-yu, jim bo‘ldi — joni uzilgan edi.

X. To‘xtaboev, Yillar va yo‘llar. *Anisimov hamisha devorni og‘gan tomonga yiqitadi*. E. Samandar, Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq.

2. Biror tomonga, pastga sirpanib, osilib tushmoq. *Qorinbog‘ bo‘shab, otning egari chap tomonga og‘ib ketibdi*.

3. To‘g‘ri, tik yo‘ldan yoki belgili yo‘nalishdan chetga chiqmoq. *Samolyot kursdan og‘di*.

4. Burilmoq, chetga chiqmoq; biror tomon siljimoq. *Yaxshiboyev gap mavzusi chetga og‘ib ketganini sezdi*. M. M. Do‘s, Lolazor. *Bek aka boshini kaftlari orasiga oldi: -Beburd bo‘lib qoldim chot yoshim og‘ib!*

Bo‘linmoq, chalg‘imoq (o‘y-xayol, diqqat- e’tibor haqida). *Birdan diqqati otib, ularga qulqoq tutdi*. «Sharq yulduzi».

5. *ko‘chma* To‘g‘ri yo‘ldan adashmoq, chetga chiqmoq, toymoq; biror siyosiy oqimdan, maslakdan toymoq, qaytmoq. *Menimcha, urtoqlar, Ko‘chqorov partiya yulidan OG‘IB, yot unsurlar ta’siriga tushib kolgan odam*. S. Anorboev, *Oq soy*.

6. Biror tomonga yo‘nalmoq, qaramoq (*ko‘z haqida*). *Xoji xola, To‘raxonning xayolchan ko‘zlariga qarab olib, javob kutdi. Juvon ko‘zları sekin yerga og‘du: «Roziman»*. M. Ismoiliy, Farg‘ona t. o. Ra’noring yerga qaragan ko‘zi sekingina Anvarga ko‘tarilib, yana yerga og‘di. A. Qodiriy, *Mehrobdan chayon*.

7. Eng yuqori nuqtadan, zenitdan o‘tmoq (Quyosh, Oy va yulduzlar haqida). *Quyosh kunbotarga og‘ib, soyalar cho‘zilib qolgan bo‘lsa ham, tepalar hamon oftob selida jimirlab yotardi*. M. Mansurov, Yombi. *Ufqqa oqqan quyosh ko‘kni tutgan tutun orasidan guyo qora shisha orqali ko‘ringanga o‘xshaydi*. Oybek, *Quyosh qoraymas*.

Ma’lum bir muddatdan, paytdan o‘tmoq, oshmoq. *Vaqt yarim kechadan oqqan edi*. M. Muxamedov, *Qahramon izidan*.

Kun asrdan og‘ib, shomga yaqin qolgan, shuning uchun guzardagi do‘konlardan ochig‘i uch-to‘rtta edi. A. Qodiriy, O‘tkan kunlar.

2. *Ko‘chma*. Biror tomonga o‘tmoq, unga moyil bo‘lmoq yoki yon bosmoq. *Biron*

e'tiborliroq odam zakon [qonun] suqib qolsa, darrov o'sha tomonga OG'IB ketishardi. J. Abdullaxonov, Xonodon. *Bu zamonda kimning jin chaqasi ko'p bo'lsa, odamlar o'shangan og'adi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2) *ayn*. Esi og'moq. 1. Esi (*yoki xushi*) og'moq *yoki esidan* (*yoki xushidan*) og'moq

1) es-xushini yo'qotib qo'ymoq, mahliyo bo'lib qolmoq. *Men, esim og'ib, uning og'ziga tikilganimcha, qimirlamay o'tirib qoldim.* Oydin, Sadag'ang bo'lay, komandir.

Demak, berilgan misollardan ayon bo'lmoqdaki, *og'moq fe'li* asosan bir tekis yo'nalishdagi harakatning o'z chizig'idan chiqishi holatini ifodalashda qo'llaniladi. Shuningdek, bu so'zning joyga nisbatan qo'llanganini kuzatar ekanmiz, asosan, yuqorida pastga harakat qilayotgan jismning qiyshayib ketishini bildiradi. Asarda esa aksincha, ya'ni ko'kka tutun og'di gapida pastdan yuqoriga ko'tarilmoq ma'nosи ustunlik qiladi. Bu o'rinda til taraqqiyoti davrida og'moq fe'lining semasida enantosemiya hodisasi yuz bergenini kuzatishimiz mumkin. Enantosemiya bu-bir so'zning vaqtlar o'tib o'zi bildirgan ma'noga nisbatan teskari ma;no anglatishidir. Basir, zinhor kabi so'zlarni biz bugun enantosemiyaga uchragan leksema sifatida baholaymiz. Chunki ular eski turkiy til davrida anglatgan ma'nosini yoq'tib, bugun unga aksincha bo'lgan ma'noni beradi.

"Qisasi Rabg'uziy" asarida uchragan yana bir leksema bu "turur" fe'lidir. Bu fe'l qadimgi turkey til, shu jumladan eski turkiy til, ya'ni XI-XV asrlarda eng faol qo'llangan ko'makchi fe'l hisoblanadi. Ko'makchi fe'l deyilganda biz bugungi grammatika nuqtayi nazaridan baholanadigan ma'noni emas, balki ism guruhiba mansub so'zlarni kesim sifatida shakllantiradigan bog'lamani nazarda tutmoqdamiz. Turur leksemasi shu holida, ya'ni tuslangan variantda bugungi tilimizdagи **-dir** bog'lamasi bajargan vazifani bajargan. Asosan ot, sifat so'z turkumiga mansub so'zlarga qo'shilib, ularni kesim sifatida shakllantirishga xizmat qilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu so'zning quyidag ma'nolari mavjud:

"Inmoq" fe'li asarda asosan yengil, uchuvchan bir narsaning biror narsaga tegishi, qo'nishi ma'nosini bildirish uchun foydalanilgan. Hozirgi o'zbek adabiy

tilida bu so‘z asosan badiiy va publitsistik uslubda keng qo‘llaniladi. Oddiy so‘zlashuv uslubida esa deyarli foydalanilmaydi. Inmoq fe’lining O‘TIL dagi izohlarini ko‘rib chiqamiz:

Inmoq

1. O‘tirmoq, qo‘nmoq- *Oyparcha, hazratning so‘zlari ta’siridan ko‘zlariga yosh ingancha, merganga qaradi. Sh. Xolmirzaev, Qil ko‘prik. Barglarga shudring ingan. S. Akbariy.*

2. *shevada*. Yuqoridan pastga tushmoq. *Poda qirdan indi. O‘ynar Bo‘ron, chir aylanib qor, tinmay inar ko‘kdan yer sari. Uyg‘un.*

Ko‘chma. Kirmoq, paydo bo‘lmoq. *Suxrob tog‘asining ushbu so‘zlarini eslarkan, titroq vujudiga quvvat inganday bo‘ldi. Gazetadan. Tuni bilan cho‘mdim xayolga, ko‘zlarimga inmadi uyqu. N. Narzullaev.*

Lug‘atda berilgan ma’nolariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asosan bu so‘z hozir ham “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan ma’no bilan deyarli bir xil ekanligini ko‘ramiz. Shuningdek, mazkur so‘zning bosh semasida ham asrlar o‘tgan esa-da sezilarli o‘zgarish deyarli yuz bermagan. Shu bilan birga inmoq fe’lining shevada qo‘llanilishini deya ta’kidlangan ma’nosи, ya’ni “yuqoridan pastga tushmoq” semasi “Devon-u lug‘otit turk” asarida xuddi shu ma’noni bergenini yuqoridagi faslda tahlil qilgandik. “Devon-u lug‘otit turk” asari muallifining bu asrni qabilama qabila yurib, xalq tilidagi leksik birliklarni yig‘ib chiqqanligi inobatga oladigan bo‘lsak, inmoq fe’li eski turkey til davrida ham shevada faol qo‘llangan. Hozir ham bu ma’noda respublikamizning janubiy hududlarida inmoq fe’li ishlatiladi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, inmoq fe’li eski turkiy tilda ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham bir ma’noda qo‘llaniladi va shu ma’noda polisemantiklik hosil qilgan.

Asarda polisemantiklik munosabatga kirishgan yana bir so‘z bu kesmoq leksemasidir. Kesmoq so‘zi o‘zi anglatadigan bosh ma’nodan tashqari quyidagi ma’noni bildirgan:

“Kesmoq” –uzmoq: *umid kesdi*. Bu misolda *kesmoq* fe’li uzmoq ma’nosini bermoqda. Endi kesmoq fe’lining hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ma’nolariga diqqatimizni qaratamiz:

Kesmoq

1. Tig‘ bilan tanasi, etini tilmoq, tilib ichiga kirmoq. *Betini ustara kesmoq. Tovonini shisha kesmoq. Qo‘lingizga nima qildi, Shokirbek? — Pichoq kesib ketdi. — Yomon kesdimi? A. Qodiriy, O‘tkan kunlar.*
2. Tig‘li asbob bilan bo‘laklarga ajratmoq, bo‘laklamoq; qirqmoq. *Nonni kesmoq-Qovunni kesmoq. Qazini kesmoq. Har vaqt maqtaydigan pichoqni qinidan sug‘urib, tarvuzni kesdi. Oybek, Tanlangan asarlar. Ziyodaxon shitob bilan ugra kesar ekan, unga [Sidiqjonga] bir qarab qo‘ydi. A. Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.*
3. Ortiqcha, keraksiz qismni tig‘ bilan olib tashlamoq. *Tok kesmoq. Gul kesmoq. Odatda, kuchuk bolaning qulog‘ini, dumini kesishadi. Chunki buning ularga foydasi bor. Sh. Xolmirzaev, og‘ir tosh ko‘chca. Cho‘loq bo‘lib yurtimga qaytganidan qaytmaganim beriroq emasmi? Qarorim shu: oyog‘imni kesmaysizlar. N. Safarov, Olovli izlar.*
4. Kanal, yo‘l va sh. k. ko‘rish uchun yoki yer ochish maqsadida balandlikni kovlab, qazib, yorib, orasini ochmoq. *Adirni kesib, yo‘l qurmoq. Oqbura olislik qilsa, tog‘ni teshib o‘tirmay, kesib o‘tkazardik suvni. M. Ismoilii, Farg‘ona t. o.*

Ko‘chma. 1. Biror joyning o‘rtaroq qismidan, orasidan tikkalab yo‘l olmoq, yo‘nalmoq.

2. *bemahal mo‘ralab turganidan xijolat bo‘lib, tolzorni kesib, orqasiga qaytdi. S. Ahmad, Hukm. Bular jangchilar shag‘al to‘kilgan katta yo‘lni kesib o‘tib, adirga tomon chiqib ketayotganda, botayotgan kuyoshning horg‘in nuri ro‘paradagi qorli tog‘ cho‘qqisini. bir lahza qizartirdi-da, so‘ndi.*

3. Badanga (uning biror a’zosiga) qattiq ta’sirini o‘tkazmoq (asosan, sovuq haqida). *Kuchli izg‘irin quloqlarni kesadi, sovuqdan oyoqlarning barmoqlari uvushadi. Oybek, Tanlangan asarlar.*

Ko‘chma Oraga luqma tashlab, gapni bo‘lmoq, to‘xtatmoq. Yo‘lchi hali gapini bitirmagan edi, Mirzakarimboy uni kesdi: -Bir terining ichida kuy necha ozib, necha marta semiradi, — dedi salmoqlanib boy. Oybek, Tanlangan asarlar.

2. s.t. Belgilamoq (mas., narxni).

3. s. t. Jazoga hukm qilmoq- *Sud o‘g‘rini besh yilga kesdi.*

Ko‘chma Pasaytirmoq, qaytarmoq, yo‘q qilmoq. Kun misday qizib ketgan, faqat adir va soylardan kelgan shabada kunning taftini kesib, odamlarga orom berib turmoqda. H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar. Achchiqni achchiq kesadi degandek, dadasining bu so‘zлari tashqaridagi sovuqni kesdi shekilli, Suvonjon eshikni kuch bilan ochib, o‘zini bo‘ronning quchog‘iga otdi. S. Anorboev, Oqsoy.

Demak, kesmoq fe’li hozirgi o‘zbek adabiy tilida faqat bir ma’noli emas, polisemantik so‘z sifatida qo‘llaniladi. Undagi “biror joyi biror tig‘li narsa bilan tilmoq” ma’nosi boshqa semalar hosil bo‘lishiga sabab bo‘lgan. “Kesmoq” fe’lining semantik tarkibida “tezlik” semasi ham mavjud. Aynan mana shu sema asosida bu fe’lning ko‘chma ma’nolari hosil qilingan. Ya’ni bu sema “kesmoq” fe’lining hosila ma’nolari nutqda paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan sema, ya’ni kesmoq fe’lining “uzmoq” ma’nosi bugun o‘zbek tilining shevalarida xuddi shu ma’noda qo‘llaniladi. Demak, “kesmoq” fe’li “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham fe’l so‘z turkumi doirasida polisemantiklik hosil qila Oladigan leksemalardan biri hisoblanadi. Uning polisemantiklik xususiyati adabiy til uchun ham, oddiy so‘zlashuv uslubi uchun ham ahamiyatlidir.

Asarda polisemantik so‘z sifatida uchragan yan biri bu “kechmoq” fe’lidir. “Qisasi Rabg‘uziy” yodgorligida bu so‘z asosiy ma’nosidan tashqari “o‘tmoq” ma’nosini berish uchun qo‘llanilgan. bu fe’lning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ma’nolariga e’tiborni qaratamiz. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu fe’l quyidagi ma’nolarni beradi va o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha izohlanadi:

Kechmoq

1. Biror narsa ustidan bosib (botib) o‘tmoq, yurmoq- *Qor kechmoq. Loy kechmoq.* *Qahraton qishda yalang oyok muz bosib, saratonda qizil qum kechib, issiqda, sovuqda obdan pishgan bizning yigitni \ Yo ‘lchini\ ham katta masofani piyoda bosgani uchunmi, kun xila betoqat kilgan edi.* Oybek. Tanlangan asarlar.

To ‘rvasini apil- tapil yelkasiga ildi-da, shaxdam qadamlar bilan tuproq kechib yo ‘lga tushdi. M. Hazratqulov, Jur’at.

2. Yuz bermoq, sodir bo‘lmoq. *U boyning uyida kechgan voqealardan xabardor bo‘lib turish uchun Shokir otaning kampirini tayinlagan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *U so ‘zlash uchun o‘rnidan turgandayoq, yuragida nimalar kechayotganini payqadim.* Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli.

Holi nima (*yoki ne*) kechdi, holi nima (*ne*) bo‘ldi, qanday ahvolga tushdi. *O‘tir. Nafasingni rostlab ol. Bolalarning holi nima kechdi?* N. Safarov, Uyg‘onish.

3. O‘tmoq. *Ko ‘nglidan qanday gaplar kechdi ekan?* *Yillarimdan xafa emasman, Mehnat, jangda kechdi onlarim.* Y. Mirzo. *Kasallik kechishiga qarab o‘tkir va xronik formalarga bo‘linadi.* Fayzullayev, Teri kasalligi nima? *U bilan birga kechgan shirin damlarni, dilrabo suhbatlarni eslaydi.* T. Ashurov, Oq ot.

4. Afv etmoq, kechirmoq. *Boy ota, Suyarning gunohini men sizdan so‘radim. Keching.* N. Safarov, Uyg‘onish.

Bir qoshiq qonidan kechmoq. Afv etmoq, afv etib omon qoldirmoq, o‘ldirmaslik, jazolamaslik.

5. Bahridan o‘tmoq. *Hamma narsasidan kechmoq. Mol-mulkdan kechmoq.* Jon do ‘sting jonidan kechsa ham, mol do ‘sting molidan kechmas. Maqol.

Bek: Xonumonimdan kechaman, ammo bu ishni ochmasdan qo ‘ymayman.

A. Qahhor, Bek.

6. Yuz o‘girmoq, aloqa, munosabatni uzmoq- *Norozi bo‘lishdan nima foyda. Dadangdan kechasamni?* Oybek, Tanlangan asarlar.

O‘tmoq fe’lining ma’nolarini, yanayam aniqrog‘i uning polisemantik ma’noga egaligini izohli lug‘atdan olingan misollar orqali ko‘rib chiqdik. Haqiqatan ham bu fe’l hozirgi o‘zbek adabiy tilida polisemantik hisoblanib,

ma'lum bir voqea bo'lib o'tishi, vaqt o'tishi, gunohidan afv etishi, yuz o'girish kabi semalarga ega ekan. Bu semalarning barchasini esa “*ma'lum bir paytdan boshqa bir paytga o'tish*” denotataiv semasi birlashtirib turadi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham bu fe'lning ayni shu ma'nolaridan biri o'z ma'nosи bilan birga qo'llanilib, polisemantiklik hosil qilganini kuzatdik. Asarda ham kechmoq fe'li “*oradan vaqt o'tmoq*” semasida aynan shu ma'noni berish uchun qo'llangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham xuddi shu sema mavjudligini inobatga olib aytishimiz mumkinki, *kechmoq* fe'li XIV asrda ham hozir ham polisemiya hodisasiga uchragan fe'l hisoblanadi hamda uning ma'no doirasi bugungi kunda ancha kengaygan.

Umuman, asardagi polisemantik so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosbatini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, XIV asrdagi ba'zi so'zlar bugun ham hech qanday ma'no o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, ayrimlarida ma'no torayishi, kengayishi kabi leksik jarayonlar kuzatilgan. Bu esa, albatta, tilning ijtimoiy voqelik ekanligi bilan chambarchas bog'liqdir.

III BOB BO‘YICHA XULOSA

“Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi polisemantik so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini o‘rganish asnosida quyidagi xulosalarga kelindi:

-“Qisasi Rabg‘uziy” asari eski turkiy tilga mansub yodgorlik hisoblanib, unda o‘sha davrning leksik xususiyatlari o‘zining ifodasini topgan.

-asardagi polisemantik so‘zlar asosan, ot va fe’l so‘z turkumiga mansub bo‘lib, ular asosan, ikkita uchtagacha yangi ma’no hosil qilgan.

-asardagi polisemantik so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilishi yoki yo‘qligini misollar asosida tahlil qilindi. Tahlil asosida ot so‘z turkumiga mansub polisemantik so‘zlar bugungi kunda ayrimlari hozir ham ko‘p ma’noli so‘z sifatida, ayrimlari esa faqat bir ma’noli so‘z sifatida qo‘llanilishini guvohi bo‘ldik.

Shuningdek, ayrim ko‘pma’noli so‘zlarning ayrim ma’nolari faqat shevaga xos so‘z sifatida XXI asr o‘zbek tili leksikasida saqlanib qolgan.

-fe’l turkumiga mansub so‘zlar esa deyarli o‘zgarmagan holda hozirgi o‘zbek tilida polisemantiklik hosil qilgan. Shuningdek, fe’l so‘z turkumidagi so‘zlarning ayrim ma’nolari faqat uslubiy xoslangan so‘z sifatida badiiy asarlarda, gazeta maqolalarida va shevalarda uchraydi. Xulosa qilish mumkinki, olti asrga teng yodgorlik tilidagi polisemantik so‘zlarning deyarli 90 foizi bugun ham iste’molda faol qo‘llanilmoqda va bu asarning eng muhim yutug‘i hisoblanadi.

UMUMIY XULOSA

“Qisasi Rabg‘uziy” – eski turkiy adabiy tilining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari aks etgan nodir manba. Asarda XIV ijtimoiy-siyosiy muhiti, xalq turmush tarzi, dunyoqarashi, ma’naviyatiga doir tushunchalarni aks ettiruvchi leksemalar tizimi aks etgan. Asar leksikasi o‘zbek tili tarixini o‘rganishda, lug‘aviy sath qonuniyatlarini, tarixiy leksikologiya masalalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. “Qisasi Rabg‘uziy” leksikasi tarixiy-etimologik jihatdan o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlamdan iborat. Turkiy so‘zlar XIV asrning, ya’ni eski turkiy adabiy tili lug‘at boyligining asosini tashkil etgan. Arxaik so‘zlarning asar matnida kuzatilishini muallifning turkiy leksik birliklarni qo‘llashga harakat qilgani hamda voqelikni ta’sirchan ifodalashga qaratilgan intilishi bilan izohlash mumkin. Asarning “Devon-u lug‘otit” matni bilan qiyoslanishi qadimgi turkiy tilga xos bir qator leksik birliklarning ayni ma’nolarda qo‘llanganini ko‘rsatdi.

Asar leksikasining o‘z qatlами XIII-XIV asrlar eski turkiy adabiy tili leksikasida faol qo‘llangan so‘zlar tashkil etadi. Asardagi turkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darjasи va semantik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Turkiy leksik birliklarning asosiy qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadi. Qadimgi turkiy so‘zlar semantik mundarijasining kengligi bilan xarakterlanadi. Leksik birliklarning semantik imkoniyatlari, konnotativ doirasi eski o‘zbek adabiy tilida hozirgiga nisbatan keng bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek tilidagi semantik o‘zgarishlar ma’no torayishi bilan izohlanadi. “Qisasi Rabg‘uziy” dagi turkiy leksemalar tahlili so‘z etimologiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar beradi. Leksema semalarini yoritish, so‘zning semantik xususiyatlarini tahlil qilish imkonini yaratadi. “Qisasi Rabg‘uziy” da eski turkiy tili davriga xos o‘zlashmalar faol qo‘llangan. Forscha-tojikcha, arabcha so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga qiyoslash natijasida leksik birliklar semantikasida o‘zgarishlar yuz bergani kuzatildi. Asar leksikasidagi o‘zlashmalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydigan so‘zlardan iborat.

Bu asarga turli olimlar: tarixchilar, adabiyotshunoslar. Tilshunoslar, manbashunoslар o‘z nuqtai nazarlaridan turib bir necha marta murojaat qilganlar va

uning turli xususiyatlari yoritilgan tadqiqoqtalar yuzaga kelgan. Biz magistrlik dissertatasiyasi doirasida bu yodnomada uchragan polisemantik so‘zlarni aniqlashga va ularni turli davrlarga mansub obidalar tiliga, shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini aniqlashga harakat qildik va quyidagi xulosalarga keldik:

1. “Qisasi Rabg‘uziy”ni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning aksariyatini asar nashrlari, tarjimalari, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan xususiyatlari haqidagi ishlar tashkil etadi. “Qisasi Rabg‘uziy”ni lingvistik aspektda tadqiq etishga qaratilgan xorijdagi tadqiqotlar asarning morfologik xususiyatlari tahlil qilingan ishlar va lug‘atlardan iborat. O‘zbekistonda olib borilgan lingvistik yo‘nalishdagi tadqiqotlarni asar tilining sintaktik, ayrim leksik xususiyatlari tahlil etilgan ishlar va lug‘atlar tashkil etadi. Asarning lingvistik xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan izlanishlar, lug‘atlar keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida alohida qiymatga egadir.

2. “Qisasi Rabg‘uziy” tilining fonetik, morfologik xususiyatlari, asarda aks etgan so‘z yasalish tizimi, eski turkiy adabiy tiliga xos morfologik shakllarni tasniflash, o‘zlashgan leksik birliklar tarkibidagi shakllarini aniqlash, so‘zning morfologik tarkibini o‘rganish, “Qisasi Rabg‘uziy”ning mukammal izohli lug‘atini yaratish masalalari lingvistik yo‘nalishdagi muhim vazifalar hisoblanadi.

3. “Qisasi Rabg‘uziy” asari XIVasrning til xususiyatlari, adabiy-badiiy yo‘nalishlari haqida keng ma’lumot beruvchi muhim yozma yodgorlik hisoblanib, uning o‘rganilishi turkiy xalqlar ilm-faniga, xususan o‘zbek adabiyoti va tili tarixiga kata ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan bu sarni nuxxalarini ko‘paytirish va uni turli jihatdan tadqiq qilish muallif hayotlik chog‘laridayoq boshlangan. Turli yillarda uni rus va boshqa millat vakillaridan Samaylovich, Ilminskiy, Gronbek kabi turkolog hamda adabiyotshunoslar tadqiq qilishgan bo‘lsa, o‘zbek olimlaridan E.Fozilov, H.Dadaboyev, A.Yunusov, B.Abdushukurov kabilar mustaqillik yillarida uni tahrirlab, qayta nashrga tayyorladilar.

4. “Qisasi Rabg‘uziy” til xususiyatlari, leksikasi, badiiy xususiyatlari haqida H.Dadaboyev, I.Ostanaqulov, Z.Shukurova, B.Abdushukurovlar tomonidan turli

maqolalar e'lon qilindi va nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Xususan, tilshunos olim H.Dadaboyev asarda qo'llangan turkiy leksemalar, shuningdek, sal fe'lining xususiyatlari haqida keng ko'lamdagi maqolalarni e'lon qilgan bo'lsa, I.Ostanaqulov uni adabiy manba sifatida tadqiq qilib, nomzodlik ishini himoya qildi. So'nggi yillarda Qisasi Rabg'uziy asari bo'yicha qilingan yirik tadqiqot bu- B.Abdushukurovning doktorlik dissertatsiyasidir. Olim o'z ishida "Qisasi Rabg'uziy" asari leksikasini har tomondan, chuqur tahlil qildi va unda qo'llangan so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, chegaralangan leksika kabi qator mezonlar asosida ilmiy jihatdan asoslab berdi. Lekin bu muhim yodgorlikni o'rganish shu bilan tugamaydi. Asar o'z davri tili, madaniyati, urf-odati, shuningdek, tarixdan xabar beruvchi yirik manba ekan, uni o'rganish, olingan ma'lumotlarni kelajak avlodag qoldirirish hali uzoq davom etadi.

5. "Qisasi Rabg'uziy" asari nafaqat ilmiy manba sifaida qimmatli, balki u ma'naviy-tarbiyaviy asar sifatida ham o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida muhim o'rinni tutadi. Asarning deyarli har bir qissasida kishini ezgulikka undovchi, yomonlikdan qaytaruvchi, savob va gunohning farqini bilishga chaqiruvchi g'oyalari, mavzular tasvirlangan. Asardan kishi ma'naviy tarbiyasining shakllanishi va yuksalishiga ta'sir ko'rsata oladigan ibratli hikoyatlar pand-nasihatlar juda keng o'rinni olgan bo'lib, asar shu jihatdan ham qimmatga egadir.

6. "Qisasi Rabg'uziy" asari leksik jihatdan juda xilma-xil bo'lib, unda o'z qatlam bilan birgalikda o'zlashgan qatlam leksikasi ham keng o'rinni olgan. Xususan, asarning g'oyaviy jihatni e'tiborga olingan holda unda arabiylar leksika faol qo'llangan. Shu bilan birga asarda bir va ko'p ma'noli so'zlar, omonim, sinonim, antonimlardan ham keng foydalilanilgan.

7. Asarda monosemantik so'zlar bilan bir qatorda ko'p ma'noli so'zlar ham juda faol qo'llangan. Polisemantik so'zlar bu- bir so'zning turli ma'nolarda qo'llanilishi, ya'ni bir leksemaning turli semalarining faollashishi natijasida yangi ma'noni berishidir. Polisemiyadagi o'ziga xos xususiyat shuki, unda yangi so'z hosil bo'lmaydi, balki bir so'zning turli o'rinnarda, turli kontekstlarda qo'llanilishi

natijasida bosh so‘zga aloqador, undan o‘sib chiqqan yana bir ma’no faollashadi. Polisemiya deyarli har bir tilda uchraydi. Shu bilan birga, til taraqqiyotining barcha davrlarida ko‘p ma’noli so‘zlardan foydalaniladi.

8. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham bir ma’noli so‘zlar qo‘llanilishi barobarida ko‘p ma’noga ega polisemantik leksikadan ham unumli foydalanilgan. Adib polisemantik so‘zlarni qo‘llashidan asosiy maqsad, ular o‘sha davr dabiy tilida qo‘llanilgan, til egalari ayni shu so‘zlarni polisematik so‘z sifatida qabul qilganligidir. Chunki har qanday badiiy asar o‘z davrining til xususiyatlaridan kelib chiqib, unga uyg‘un holda yaratiladi.

9. Asarda polisemiya hodisasisiga uchragan so‘z turkumlari orasida ot va fe’l soz’ turkumiga oid so‘zlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Chunki ot va fe’llar har qaysi til lug‘at boyligining asosini tashkil qiladi. Otlar shu tildagi mavjud kishilar va narsalarning nomini bildirsa, fe’llar ish-harakat, holatni ifodalashi bilan alohida ahamiyatga egadir. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ot so‘z turkumiga mansub so‘zlearning ayrimlari polisemantik munosabatga kirishgan bo‘lib, ular asosan bir so‘z turkumi doirasida ko‘pma’nolilik hosil qilgan. Ot so‘z turkumidagi polisemantik so‘zlardagi asosiy xususiyatlari shuki, ular ikki va undan ortiq ma’nolarda qo‘llangan. Barcha polisemantik so‘zlar bosh, dominant ma’noga bog‘liq holda kontekstda turli ma’nolarni ifodalagan. Ularning aksariyati hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham polisemantik so‘zlar hisoblanadi.

10. Fe’l so‘z turkumiga oid polisemantik so‘zlar esa asarda juda faol qo‘langan bo‘lib, ular asar tilining ta’sirli chiqishini ta’minalash bilan birga, muallif yashagan, ijod qilgan davrning til xususiyatlari haqida ham keng ma’lumotlar berishi bilan qimmatlidir. Fe’l so‘z turkumiga mansub ko‘p ma’noli so‘zlarda ham bir umumiy ma’noning turli semalari faollashib, boshqa kontekstda turli ma’nolarni ifodalab kelgan. Shuningdek, polisemantik fe’llarning aksariyati tarixiy taraqqiyot natijasida bugungi tilimizda qo‘llanilmay qolgan, lekin ba’zi bir fe’llar hozir ham aynan shu ma’noda qo‘llanilmoqda. Umuman, olganda “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ot va fe’l so‘z turkumidagi leksemalar faqat bir ma’noda emas, balki ko‘p ma’noda qo‘llanilib, asarning badiiy qimmatini oshirishga, o‘z

davrining til xususiyatlaridan xabar berishga hamda XIV asrda qo'llangan faol leksika haqida ma'lumot berishga xizmat qilgan.

11. “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi polisemantik so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini tahlil qilish har ikki davrdagi leksik qatlarning umumiyligi va xususiy jihatlarini ochilishida kata ahamiyatga egadir. “Qisasi Rabg‘uziy” asari eski turkiy tilga mansub yodgorlik hisoblanib, unda o‘sha davrning leksik xususiyatlari o‘zining ifodasini topgan.

12. Asardagi polisemantik so‘zlar asosan, ot va fe’l so‘z turkumiga mansub bo‘lib, ular asosan, ikkitadan uchtagacha, ba’zan beshtagacha yangi, ya’ni hosila ma’no hosil qilgan. Yodnomadagi polisemantik so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo’llanilishi, ularning farqli jihatlari va o‘xshash tomonlari asardan oloingan misollar va hozirgi o‘zbek tiliga oid matnlar asosida tahlil qilindi. Tahlil asosida ot so‘z turkumiga mansub polisemantik so‘zlar bugungi kunda ayrimlari hozir ham ko‘p ma’noli so‘z sifatida, ayrimlari esa faqat bir ma’noli so‘z sifatida qo’llanilishini guvohi bo‘ldik. Shuningdek, ayrim ko‘pma’noli so‘zlarning ayrim ma’nolari faqat shevaga xos so‘z sifatida XXI asr o‘zbek tili leksikasida saqlanib qolgan.

13. Fe’l turkumiga mansub so‘zlar esa deyarli o‘zgarmagan holda hozirgi o‘zbek tilida polisemantiklik hosil qilgan. Shuningdek, fe’l so‘z turkumidagi so‘zlarning ayrim ma’nolari faqat uslubiy xoslangan so‘z sifatida badiiy asarlarda, gazeta maqolalarida va shevalarda uchraydi. Xulosa qilish mumkinki, olti asrga teng yodgorlik tilidagi polisemantik so‘zlarning deyarli 90 foizi bugun ham iste’molda faol qo’llanilmoqda va bu asarning eng muhim yutug‘i hisoblanadi.

14. “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi ko‘p ma’nolilik hodisasini tahlil qilish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, uning til xususiyatlari hozirgi o‘zbek adabiy tilidan birmiuncha farq qilsa-da, umumiyligi jihatlar ham ko‘p. shuningdek, obidada qo’llangan hosila ma’nolarning aksariyati bugun o‘zbek tilining og‘uz, qipchoq shevalarida ham faol qo’llaniladi. Bu esa asar tilining, unda qo’llangan polisemantik leksemalarning tarixiy taraqqiyot davomida o‘zgarmasdan qolganini, ijtimoiy voqelik sifatida saqlanganining belgisidir. Mazkur magistrlik

dissertatsiyamizning oldiga qo‘yilgan vazifa, ya’ni undagi polisemantik so‘zlarni aniqlash, shuningdek, eski turkiy til hamda hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini tahlil qilish asosida olingan xulosalar esa asarni ta’limning turli bosqichlarida o‘qitishda, shuningdek, keyingi lingvistik tadqiqoqlar uchun muhim bir qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -488 b.
2. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2909-sonli qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 21-apreldagi 27-soni.
3. Karimov I. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. - 686 b.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’nnaviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’nnaviyat, 2008. -174b.

II. Matn va adabiy manbalar:

5. Koshg‘ariy Mahmud. Devon-u lug‘otit turk. 3-jildli.
6. Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. Toshkent: Mumtoz so‘z. 2009. B.205. Nashrga tayyorlovchi B. Abdushukurov
7. Рабғузий Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. Биринчи китоб. – 240 б.
8. Рабғузий Носируддин Бурҳониддин. Қисаси Рабғузий. 2 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. Иккинчи китоб. – 272 б.

III. Monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalari:

9. Abdushukurov B. Eski turkiy adabiy til leksikasi. T.: Tafakkur bo‘stoni , 2015.
10. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. Академия. – Т.: 2002.

11. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Мумтоз адабиёт – ҳикмат хазинаси. – Бухоро, 2001.
12. Grohbech K. Rabguzi Narrationes de Prophetis. Cod. Mys. Brit. Add. Kopenhagen, 1948.
13. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. -128 б.
14. Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар ўкув луғати. –Тошкент: Ўқитувчи. 1994. -272 б.
15. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1 том: Энг қадимги даврлардан XV асрнинг II ярмигача. - Тошкент: Фан, 1978.
16. Mirtojiyev M.O‘zbek tilida polisemiya.T.:Fan, 175.
17. Mirtojiyev M.O‘zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so‘z, 2010. B.186.
18. Самайлович А.Н. К Историии литературного среднеазиатского турецкого языка . Сборник «Mir-Ali-Shir». – L.: 1928.
19. Толстов С. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. - Тошкент, 1964.
20. Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. – Самарқанд, 1928.
21. Фозилов Э.И. Носируддин Рабғузий ва унинг “Қиссаси Рабғузий” асари. Китобда: “Қиссаси Рабғузий”. - Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
22. Ўзбек адабиёти тарихи (XVI асрдан XVIII асрнинг 70- йилларигача). Беш томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1978. – 152 б.
23. Қаюмов А. Қадимият обидалари. – Тошкент, 1972.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

24. Остонакулов И. “Қисас ар-Рабгузий – адабий асар: Филология фанлари номзоди... дисс. // Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. – Тошкент, 1993. - 129 б.
25. Сафарова Ҳ.А. Рабғузийнинг “Қиссаи Юсуф Сиддиқ алайхиссалом” асари манбалари ва гоявий-бадиий таҳлили: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореф.: // А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университети. – Самарқанд, 2001. - 33 б.

V. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va ilmiy to‘plam tezislari:

26. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий”да полисемантик сифатлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2009. - № 3.
27. Дадабоев Ҳ. Ўзбек адабий тили лексик таркибининг ўзлашмалар хисобига бойиши// Тошкент вилояти давлат педагогика институти педагогходимларнинг анъанавий илмий-назарий амалий-услубий анжумани маърузалари. – Ангерин,2007..
28. Дадабоев Ҳ. “Киссаси Рабғузий”даги аёл семали лекмалар хусустда // Филология фани:янги аср муаммолари. –Т.,2003.
29. Дадабоев Ҳ. “Киссаси Рабғузий”нинг лексик хусусияти ҳакида// Марказий Осиё олимларининг ўрта аср илмларига кўшган ҳиссас. –Т., 1999.
30. Дадабоев Ҳ. “Киссаси Рабғузий” тилидаги туркий лексемалар//Второй международный тюркологический конгресс. Современная тюркология:теорияб, практика и перспективыю I бўлим. – Туркестан, 2006.
31. Дадабоев Ҳ. “Киссаси Рабғузий”да кўлланган сал- феълининг семалари хусусида// Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Т.:2006.

32. Зохидов П. Рабғузий саодати // Тафаккур. 2008 й. №1.
33. Rahmatullayev Sh. Leksik ma’noni komponentlab tahlil qilish. O‘zbek tili va adabiyoti.-T:, 1978. 4сон.
34. Сафарова X. Рабғузий ҳикоятлари – ноёб маънавий хазина // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1999. - № 3. –Б. 81-83.
35. Юнусов А. “Қиссаси Рабғузий”нинг қўлёзма нусхалари // Адабий мерос, 1989. - № 3 (99). - Б. 73-97.
36. Ҳайитов Ш., Ҳайитова Г. Илоҳий қиссалар жозибаси // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2000. -№4 –Б. 46-52.
37. Shukurova Z. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”da ertak motivlari G‘G‘ Til va adabiyot ta’limi. 2010 у. №3.
38. Shukurova Z. Rabg‘uziyning “Qisasul anbiyo” asari nusxalari haqida G‘G‘ Til va adabiyot ta’limi. 2010 у. №9.
39. Shukurova Z. “Qisasi Rabg‘uziy”da tush talqini G‘G‘ Til va adabiyot ta’limi. 2011 у. №7.

VI. Lug‘atlar:

40. Навоий асарлари луғати (Алишер Навоий асарларининг 15 томлигига илова). –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. -583 б.
41. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли, 1-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -576 б.
42. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли, 2-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -602 б.
43. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли, 3-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -632 б.

44. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 томли, 4-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -672 б.

45. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 томли, 5-том. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат Илмий нашриёти, 2006. -597 б.

VII. Elektron resurs manbalari:

46. <http://www.ziyo.uz>

47. <http://www.ziyonet.uz>

48. <http://wikipedia.uz>

49. <http://kh-davron.uz/ijod/sherlar/xurshid-davron-sherlar.html>

50. <http://ertak.uz/songs/655>